

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida

UDK:15.301.085

Mirzakarimova Nilufar

**Kichik maktab yoshidagi bolalarda shaxslararo munosabatlar dinamikasi
psixologik diagnostikasi va korreksiyasi**

5A 110902 - "PSIXOLOGIYA"

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

dissertatsiyasi

2014

**MAVZU: KICHIK MAKATAB YOSHIDAGI BOLALARDA SHAXSLARARO
MUNOSABATLAR DINAMIKASI PSIXOLOGIK DIAGNOSTIKASI VA
KORREKSIYASI**

Reja.

Kirish.

1-BOB. Muammoning nazari metodologik asoslari.

1,1 . Jahon psixologlari asarlarida yosh davrlari muammosi

1.2 kichik maktab yoshi davrda psixologik xususiyatlari

1.3 shaxslararo munosabatlar psixologiyasi yoshga xos xususiyatlari

Bob bo'yicha xulosalar.

2-BOB. Kichik maktab yoshidagi bolalarda shaxslararo munosabatlar dinamikasi

2.1 Muloqatning psixologik tafsifi

2.2 Ijtimoiy munosabatlar va muomalani o'rganish mezonlari

2.3 Shaxslararo munosabatlarni o'rganish metodlari

Bob bo'yicha xulosalar.

**3-BOB. Kichik maktab yoshidagi bolalarda shaxslararo munosabatlar dinamikasi
psixologik diagnostikasi va korreksiyasi**

**3.1. Kichik maktab yoshidagi bolalarda shaxslararo munosabatlari diagnostikasi va
korreksiyasi**

BOB bo'yicha xulosalar.

Umumiy xulosalar.

Taklif va tavsiyalvar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Ilovalar.

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston respublikasining mustaqillikka erishuvi natijasida jamiyatimizda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yangi bosqichiga o'tildi. Jamiyatning yangilanishi talim sohasida islohotlar qilinishini, o'zgartirishlar kiritishni, yangicha talim berish usullarini, yangicha yondashuvni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan sog'lom mustaqil fikrlovchi, aqliy takomillashgan yuksak ahloqli va istedodli shaxsni jaxon andozalariga mos ravishda dunyoviy bilimlar bilan xam nazariy, ham amaliy qurollantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida demokratik boshqaruv tamoyillariga asoslangan huquqiy davlat hamda fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsadida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ilmiy sohalarda tub islohotlar olib borilayotgan bir sharoitda yoshlarning intellektual salohiyatini yuksak darajaga ko'tarish, bu borada o'quvchilarning kasbiy shakllanishida intellekt darajasini aniqlash va dinamikasiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Respublikamizda tub demokratik o'zgarishlar yuz berayotgan bir davrda insonparvar psixologiyaning qonuniyatlarini va ilmiy materiallarini o'rganish, ulardan o'z faoliyatimizda foydalanish vazifasi qo'yilmoqda. Ayniqsa, uzluksiz ta'lim tizimi jarayonida ta'lim sub'ektlarining psixologik xususiyatlarini, o'zaro munosabatlarining psixologik asosini tadqiq etish muhim masaladir.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarning bilim olishlari va dunyoqarashlarini qat'iy maqsadli, izchil, tizimli, uzviy tashkil etish, ularni jamiyatning faol a'zosi sifatida faoliyat ko'rsatishlariga erishish, eng avvalo, mazkur masalaning dolzarb pedagogik-psixologik muammo sifatida keng ko'lamli va chuqur tadqiq etilishini taqozo etadi. Yoshlarning ijtimoiy voqelik hodisalariga to'g'ri baho bera olishlari, ijtimoiy o'zgarishlar xususida shaxsiy fikrga ega bo'lishlari ma'lum darajada ularning bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlarini talab etadi. O'quvchilar tafakuri va intellekti darajasini diagnostika qilish yoshlarda keng dunyoqarashni shakllantirishning shart-sharoitlari, omillarini aniqlashga imkon beradi. Tadqiqot konsepsiyasiga muvofiq o'quvchining kasbiy shakllanishida tafakur va umumiy intellekt dinamikasini tadqiq etish psixologik va ijtimoiy qonuniyatlar integratsiyasiga asoslanishini ko'rsatdi. Shu bilan birgalikda kasbiy shakllanishning ijtimoiy-psixologik omillari o'z yechimini topdi

Shaxsning barkamolligi ko'p jihatdan uning aqliy rivojlanishi va ma'naviy jihatdan shakllanganlik darajasiga bog'lik bo'ladi. Bugungi kunda inson muammosi aniq va gumanitar fanlarning umumiy tadqiqot ob'ektiga aylanib bormoqdaki, be'vosita psixologiya fani bu borada nazariy va amaliy ta'limotlarning inson ruxiy kechinmalarini o'rganishda zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalanilmoqda.

Komil insonning muhim sifatlaridan biri muloqot madaniyatidir. Muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatni o'zlashtirish va o'z ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Hozirgi kunda ijtimoiy amaliyotda muloqot va shaxslararo munosabatlar muammosi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Muloqot va uning asosiy xususiyatlari, samarali muloqotning psixologik aspektlari, muloqotga o'rgatishga oid psixologik mashqlar, samarali muloqotning psixologik vositalarini o'rganish ishbilarmonlik faoliyatida asosiy o'rinni egallamoqda. Shu nuktai nazardan bizning tadqiqot mazuimiz dolzarb maslalani taxlil qilishga yo'naltirgan.

Mavzuning ishlanganlik darajasi. Ta'lim jarayonining ko'plab metodlari, shakllari, vositalari mavjud bo'lib, ulardan omilkorlik bilan foydalanish to'g'risida jahon psixologiyasida ko'plab yondashuvlar, konsepsiyalar, nazariyalar yaratilgan. Insonni aqliy rivojlantirish masalasi kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida mutafakkirlar hamda faylasuf, tarixchi, psixolog va pedagog olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Buni, birinchi navbatda, Sharq allomalari tomonidan yaratilgan ilmiy-axloqiy asarlarda ko'rish mumkin. Qomusiy olimlar – Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Kaykovus, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalarning barkamol insonning aqliy tarbiyasida ilm-fanning o'rni haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotgan emas. Ilmiy adabiyotlarning kompleks o'rganilishi va tahlil etilishi shuni ko'rsatmoqdaki, mazkur muammo jahon psixologiya fanida XX asr boshlaridan o'rganilib kelinmoqda. Muammo masalalari, ayniqsa G'arb psixologiyasida ayrim olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan, biroq, O'zbekiston uchun uning zaruriy, nozik jabhasi ob'ekt sifatida kam tadqiq etilgan. Shuningdek, G.Yu.Ayzenk, L.S. Vigotskiy, M.G.Davletshin, D. Dyui, V.M.Karimova, A.N.Markova, V.S.Merlin, L.M.Mitina, R.S.Nemov, A.Palmar, V.V.Pospeev, E.G'oziev, A.A.Rean, I.Ye.Rogov, S.L.Rubinshteyn, Fridman kabi olimlarning tadqiqotlarida o'quvchilarning aqliy rivojlanishini tashkil etishning ijtimoiy-psixologik mohiyati asoslab berilgan. J.Piaje,

V.Shtern va boshqalar intellekt hayotning turli sharoitlariga biopsixologik moslashishdir, deb qaraydilar. J.Piaje tadqiqotlarida bola intellekti sifat jihatidan farq qiluvchi 2 bosqichni o'z ichiga oladi. Birinchisi nutqda o'z ifodasini topsa, ikkinchi bosqichda intellekt o'ziga xos aqliy operatsiyalarni amalga oshiradi, bu uning mohiyatini o'zida ifoda etadi. J.Piajening asarlarida intellektning rivojlanish dinamikasi, uning psixologik asoslari yaqqol namoyon bo'ladi. Uning asosiy tadqiqotlari "Bola nutqi va tafakkuri" (1923), "Bolada intellektni tug'ilishi" (1936), "Bolada hukm va xulosa chiqarish" (1936), "Intellekt psixologiyasi" (1946) va boshqa asarlarida o'z ifodasini topgan. Rus psixologiyasida intellektning yaxlitligi va uning shaxs bilan bog'liqligi tomonidan yondashiladi. Xususan, rus psixologlaridan L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy A.A.Smirnov, B.G.Ananov, D.B.Elkonin, P.Ya.Galperin va ularning shogirdlari

turli yoshdagi odamlar intellektini diagnostika qilish, rivojlanish dinamikasi va psixologik jihatlarini o'rganishga xarakat qilganlar. O'zbekiston Respublikasida intellekt yosh davrlarining o'ziga xos jihatlari borasida M.Vohidov, M.Davletshin, E.G'oziev va boshqalar olib borgan ilmiy-psixologik ishlarda ko'zga tashlanadi, ammo o'quvchi intellektining diagnostikasi, uni rivojlanish xususiyatlari o'ziga xosligi juda kam o'rganilgan.

Tadqiqot ishining maqsadi – Kichik maktab yoshidagi bolalarda shaxslararo munosabatlari dinamikasi psixologik diagnostikasi va psixologik korreksiyasini tadqiq etish, nazariy va amaliy ma'lumotlarni taqqoslash va umumlashtirishdan iborat.

Tadqiqot ishining ob'ekti- Kichik maktab yoshidagi bolalarda shaxslararo munosabatlar jarayoni

Tadqiqot ishining bazasi: Andijon shaxar 30 son umumta'lim maktabi ukuvchilari Jami 50 nafar o'quvchi.

Tadqiqot ishining predmeti- kichik maktab yoshi o'quvchilarining shaxslararo munosabatlari dinamikasi va xususiyatlarini o'ziga xosligini nazariy va amaliy o'rganish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

1. Mavzuga ta'luqli birlamchi manbaalar taxlil qilinganligi xamda umumlashtirilganligi.
2. Eksperiment o'tkazish uchun original materiallar to'planganligi xamda izlanish ob'ektlariga va sub'ektlariga muvofiqlashtirilganligi.
3. Kichik maktab yoshidagi bolalarda shaxslararo munosabatlari dinamikasi muammosini aniqlashga, uning qirralarini ifodalash va talqin qilishga xizmat qiladi.
4. Tajribalarda o'quvchilar o'ziga xoslik, yosh davr xususiyatlari va tafovutlari ishonchli mezonlar asosida ko'rsatib o'tilganligi.

Tadqiqotning farazi.

Agar

1. Ta'lim tizimida faol o'qitish metodlari va mehnatni shakllantirish jarayonini amaliy mashg'ulotlar asosida ko'proq tashkil etilsa, uni takomillashtirishga va samaradorligini oshirish extimoligiga ega.
2. O'qitishning adekvatligi yani obektga nisbatan muvofiqligi fanni o'zlashtirish va amaliyotga qo'llashda xal qiluvchi rol o'ynashi mumkin.

3. Bolani mehnatga o'rgatish va uni ta'lim tarbiyasiga ota –ona, maxalla maktab hamkorligini rivojlantirish orkali ijobiy xislatlarni shakllantirish imkoniyati oshishi mumkin.

1) Kichik maktab yoshi davrida bolalarning qiziqishlari, xatti-xarakatlari beqaror bo'ladi, shu nuqtai nazardan ularni mehnatga qiziktirish muxim rol o'ynaydi, agar ularning faoliyatini to'g'ri yo'naltirishga tarbiyachi va pedagoglar, ota onalarning hamkorligini doimiy taminlanishi ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

Ushbu muammo bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarini xajmi va salmog'i bilan belgilanib, hozirgi kunda bu muammo yetarli darajada ishlangan deb bo'lmaydi. Chunki ko'pchilik olimlar kichik maktab yoshi shaxsini kognitiv, emotsional-affektiv tomonlariga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar olib borganlar, ularni ho'uv va mehnat faoliyatiga moslashish faoliyati motivlari esa deyarli o'rganilmagan. Shu nuqtai nazardan tado'io'otimizning ilmiy yangiligini o'uyidagilar belgilab beradi deb aytishimiz mumkin.

1. Mavzuga ta'luqli birlamchi manbaalar taxlil qilinganligi hamda umumlashtirilganligi.
2. Eksperiment o'tkazish uchun original materiallar to'planganligi hamda izlanish ob'ektlariga va sub'ektlariga muvofiq lashtirilganligi.

3. Kichik maktab yoshi davrining psixologik xususiyatlarini riojdanishi darajasiga kha ularning ho'uv va mehnat khnikmalarining shakllangaligini isbotlanganligi.

4. O'quvchilarning fikrlashi o'sganligi, hamkorlik imkoniyatlarining ro'yobga chiqarilganligi, ularning mehnatga munosabat motivlarining rivojlantirilishi, o'qish va mehnatning mazmunini bola ongiga ijobiy xususiyatlarining singdirilishi.

Tadqiqotning metodologik asoslari.

Jaxon psixologiyasidagi ilg'or konsepsiyalar, yondashuvlar, ilmiy psixologik prinsiplar, qonunlar, qonuniyatlar, mexanizmlar; sifatida klassik psixologiyadagi shaxsni o'rganishga haqqoniy va shaxslilik nuqtai nazaridan yondashish, shaxsning faolligi va taraqqiyot tamoyillari hamda psixik hodisalarni tadqiq etishga kompleks yondashish (B.G. Anan'ev), determinizm tamoyili (S.L. Rubinshteyn, A.N. Leontev), tizimli yondashish (B.F. Lomov)lar xizmat qildi. Izlanishlarimizda O'zbekiston hukumati qarorlari, Respublikamiz Prezidenti I.A. Karimovning barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risidagi g'oyalariga asoslandik. Shunigdek, shaxsning faoliyatda shakllanishi nazariyalari (L. Vigotskiy, D. Elkonin, A. Leontev, G. Andreeva va boshqalar), O'zbekistonlik psixologlarning bola shaxsini tadqiq etish buyicha ishlab chiqqan nazariy yondashuvlari (M. Davletshin, G. Shoumarov, E. Goziev, V. Karimova, B. Qodirov, N. Sog'inov va boshqalar) ham tadqiqotimizning metodologik asosi bo'lib xizmat qildi.

.Tadqiqotning metodlari.

Shaxslararo munosbatlarni o'rganish masalalari asosan, kuzatishlar va pedagogik tajribalarga tayanadi. Muloqatga kirishish qobiliyat - o'quvchining shaxslararo munosabatlar jarayonini diagnostika qilish orqali o'rganiladi. Jumladan, aqliy rivojlanish darajasini aniqlashdagi omillar esa, ortiqcha predmetni olib tashlash metodi; analitik-sintetik xususiyatlar taxlili; ortiqcha tushunchani topish metodikasi; o'quvchining mavxum va so'z-mantiq tafakkurini diagnostika qilish; ortiqcha tushunchalarni topish bo'yicha misollar; tushunchalarni taqqoslash; o'quvchidagi elementar fikrlash ko'nikmasini aniqlash; o'quvchining o'quv materialidagi muxim va asosiy belgilarni ajrata olish xususiyatlarini diagnostikasi; oddiy va murakkab analogiya metodlari orqali aniqlanib, xozirgi zamon o'quvchisining o'quv va mehnat malakalari borasidagi ijobiy va salbiy xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, tadqiqotimiz davomida quyidagi metodlardan foydalandik: kuzatish, suxbat, savol javob, mehnat ko'nikmalarini shakllantiruvchi metodikalar, psixodiagnostik testlar, mehnat malakalarini aniklovchi metodikalar, psixologik sifat taxlil qilish metodikalari. ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil etish

Himoyaga olib chiqilayotgan xolatlar

1. kichik maktab yoshi davrida shaxslararo munosabatga kirishi dinamikasini yoshga xos xususiyatlari, kichik maktab yoshi davridagi bolalalarning biologik, ijtimoiy -psixologik, individual psixologik o'ziga xos xarakterga egaligi bo'lishi bilan bog'liqdir. Ushbu xususiyatlarni tadqiq etish, adaptatsiyani shakllantirishda sabab va motivlarini aniqlashtirishda aloxida ahamiyat kasb etadi.

2. Kichik maktab yoshi davrida bolalarning muloqat jarayoniga moslashishida xissiy - emotsional soxadagi o'zgarishlar kuzatiladi

3. Psixologik profilaktika tadbirlar o'quvchilarni o'qishga va mulokat madaniyatiga moslashtirishda pedagoglar, psixologlar ota -onalarning mas'uliyat xissini to'la qonli darajada his eta olgan taqdirdagina hamkorlikda amalga oshiriluvchi kompleks chora tadbirlarini o'z ichiga oladi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati

1) Ta'lim jarayonida sub'ekt-sub'ekt munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlariga oid ilmiy materiallar bilan psixologiya soxalarini boyitilishi , umumlashtirilgan nazariy va amaliy materiallardan dasturlar, ma'ruza matnlari, o'quv qo'llanmalar tuzishda ma'ruza o'qishda foydalanish

2) Kichik maktab yoshi o'quvchilarida mehnatga va o'quv faoliyatiga nisbatan ko'nikma va malakalarning shakllantirilishi,

3) Boshlangich sinf o'qituvchilari uchun amaliy mashg'ulotlarining nazariy manbaalar bilan uyg'unligini ta'minlanishi.

4) Kichik maktab yoshi o'quvchilari uchun o'quv ko'rgazma materillari bilan ta'minlanishi. va ta'limga yo'naltirish

Tadqiqotning tuzilishi. Kirish, 3 bob 7ta bo'lim, xulosa, tavsiya va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1-BOB. Muammoning nazari metodologik asoslari.

1,1 . Jahon psixologlari asarlarida yosh davrlari muammosi

O'tgan ajdodlarimiz yosh psixologiyasining muammolarini izchil va atroflicha, muayyan yo'nalishda, ma'lum konsepsiya asosida o'rganmagan bo'lsalar ham, allomalarning asarlarida mazkur holatlarning aks etishi, namoyon bo'lishi, rivojlanishi va o'zgarishlari to'g'risida qimmatli fikrlar bildirilgan. Bular to'rt xil manbalarda uchraydi. Ularning biri - xalq ijodiyoti: rivoyatlar, maqollar, matallar va masallar; ikkiinchisi - maxsus ijodkor kishilar muayyan shaxsga bag'ishlab yozgan o'git-nasihat va hikoyatlar; uchinchisi - qomusiy, O'rta Osiyo mutafakkirlarining ilmiy-nazariy qarashlari; to'rtinchisi - turli davrlarda ijod qilgan shoir va yozuvchilar ijodining mahsullari, yahni badiiy asarlardir.

Abu Nasr Forobiyning inson va uning psixikasi haqidagi ahloqiy-falsafiy mushohadalari «Ideal shahar aholisining fikrlari», «Masalalar mohiyati», «Falsafiy savollar va ularga javoblar», «Jism va aksidensiyalarning shakllariga qarab bo'linishi», «Sharhlardan», «Hikmat mahnolari», «Aql mahnolari to'g'risida» kabi qator asarlarida bayon etilgan. Abu Rayhon Beruniy o'zining «O'tmish yodgorliklari» kitobida inson hayotiga doir xilma-xil mahlumotlarni keltiradi. Shu jumladan, olim kishilarning jismoniy tuzilishi, umrlarining uzun-qisqaligi to'g'risida bildirgan mulohazalar diqqatga sazovordir. Beruniy odam uzoq vaqt yashashining sababini biologik va irsiy omillar bilan bog'laydi. Bu jihatdan uning «Hindiston», «Mineralogiya» asarlari, Ibn Sino bilan yozishmalari alohida ahamiyatga ega.

Ibn Sinoning 5 tomlik «Tib qonunlari» asarida organizmning tuzilishi, undagi nervlar va nerv yo'llari, fiziologik jarayonlar bilan bog'liq psixik jarayonlar haqida ancha muhim mahlumotlar bor. Uning «Odob haqida» risolasi ham inson shaxsini shakllantirish to'g'risidagi jiddiy asardir.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asaridagi bosh masalalardan biri komil insonni tarbiyalashdir. Adib o'z asarida eng komil, jamiyatning o'sha davrdagi talablariga javob bera oladigan insonni qanday tasavvur qilgan bo'lsa, shu asosda o'z prinsiplarini bayon etadi: A.Jomiyning «Bahoriston», Xiradiomai Iskanlariy», «Tuhfatul ahror», «Sililatuz zahob» va boshqa asarlarida ilm-mahrifat, ta'lim-tarbiya, kasb-hunar o'rganish, yaxshi xislatlar va odoblilik haqidagi fikrlar ifodalangan.

Davoniy o'zining «Ahloqi Jaloliy» nomli asarida insoniy fazilatlarni to'rtga bo'ladi va bular donolik, adolat, shijoat va iffatdir. Shoir, ayniqsa, donolik fazilatini chuqur tahlil qiladi. Uningcha, inson o'zining aqliy qobiliyati va aqliy istehdodini tarbiyalash uchun zukko, zehnli, fahm-farosatli bo'lishi va bilimlarni tez egallashi lozim.

A.Navoiyning «Xazoyinul maoniy», «Mahbulul qo'lub» va boshqa asarlarida yetuk, barkamol insonning ahloqi, mahnaviyati, odamlarga munosabati, istehdodi va qobiliyati to'g'risida qimmatli mulohazalar yuritilgan. Ana shu psixologik kategoriyalar ijtimoiy adolat qaror topishi uchun muhim

ahamiyatga ega ekani tahkidlangan. Shuningdek Navoiy asarlarida shaxsning kamol topishida otanoning roli, ayollarning iffatligi, insonlarning kamtarligi masalalari, alohida o'rin egallaydi..

Yuqoridagilardan tashqari, Bobur, Farobiy, Majlisiy, Mashg'ab, Gulxaniy, Nodira, Uvaysiy, Muhimiy, Furqat, Bedil, Zavqiy, Xamza, Avloniy va boshqalarning yoshlar tarbiyasiga, ahloq-odob, fehl-atvor, oilaviy hayot masalalariga, shaxslararo munosabatlarga doir qarashlari ham turli janrlardagi asarlarda ravon va ixcham bayon qilib berilgan.

Rossiyada psixologik tadqiqot namunalari Sharq va G'arb madaniyati ta'sirida inson ruhiyati bilan bog'liq qator og'zaki va yozma, amaliy va ilmiy asarlarda paydo bo'la boshladi. Dastlabki pedagogik-psixologik mazmundagi asarlar XVII-XVIII asrlarda diniy-ahloqiy negizda yozilgan edi. XVIII asrdan boshlab bolalar psixologiyasi bo'yicha muayyan tartibga, yo'nalishga va uslubga ega bo'lgan ilmiy fikrlar vujudga keldi. Rus tarixchisi V.N.Tatishchev (1686-1750)ning «Fanlar va bilim yurtlarining foydasini to'g'risida suhbat» kitobida fanlarning tasnifi, bilimlarni egallash zarurligi, tilning xosiyati, yozuvning ahamiyati, yosh davrlarining xususiyati nuqtai nazardan bayon qilingan. N.I.Novikov(1744-1818) bashariyat farovonligini o'nlab yoshlar va bolalar o'rtasida foydali bilimlarni keng yoyish uchun ularni o'ziga xos yo'sinda tarbiyalash kerakligi g'oyasini ilgari suradi. Uning asarlarida insonning kamoloti uchun tafakkur, xotira, ahloq, his-tuyg'u va taqlidchanlik alohida ahamiyatga ega ekani tahkidlanadi. A.N.Radishchevning(1748-1802) «Peterburgdan Moskvaga» sayohat kitobi ham aslida pedagogik-psixologik asar, deyish mumkin. Rus sotsial-demokratlari A.N.Gersen, N.G.Chernishevskiy, N.A.Dobrolyubov, V.G.Belinskiylarning inson kamoloti to'g'risidagi qarashlari psixologiyani jonlantirishda muhim rol o'ynadi. Rossiyada ilmiy psixologiyani rivojlantirishda K.D.Ushinskiy, N.F.Kapterev, I.A.Sikorskiy, A.P.Nechaev, A.F.Lazurskiy, P.F.Lesgaft kabi olimlar katta hissa qo'shdilar. K.D.Ushinskiyning «Inson tarbiya predmeti», N.F.Kapterevning «Pedagogik psixologiya», I.A.Sikorskiyning «Bola ruhi», A.P.Nechaevning «Hozirgi zamon eksperimental psixologiyasi va uning maktab ta'limiga munosabati», A.F.Lazurskiyning «Maktab o'quvchisining tavsifi», P.F.Lesgaftning «Oilada bola tarbiyasi va uning ahamiyati», J.Yelnitskiyning qizlar tavsifi asarlari psixologik ilmiy tadqiqotni jadallashtirishga xizmat qildi.

Rossiyada G.I.Rossolinoning «Yosh psixologiyasi va nevrologiyasi» laboratoriyasi ishga tushdi. «Tarbiya xabarlari», «Rus maktabi», «Erkin tarbiya», «Kundaliklar» kabi jurnallar chop etila boshlandi. Ana shuning zahirida «Oila tarbiyasi qomusi» dunyo yuzini ko'rdi. Bularning barchasi shaxs psixologiyasi va differensial psixologiyaning fan sifatida shakllanishiga keng imkoniyat yaratdi. Yuqorida aytilgan asarlarda idealistik qarashlarga xayrixohlik ijtimoiy muhitning ahamiyatiga ehtiborsizlik ko'zga tashlanadi. Ularda insonning ijtimoiy mavjudotligi tan olinib, unga ilmiy materialistik nuqtai nazardan yondashilsada, insondagi psixologik, fiziologik va biologik jihatlar, tarkibiy qismlar tabaqalanmaydi, tashqi muhitni bosh omil deb tushuntiriladi. Rus fiziologiyasining

otasi I.M.Sechenov psixikaning reflektor xususiyatini kashf qilib, shuningdek bilish jarayoni, inson his-tuyg'usi, o'zini o'zi (o'zini) anglashining fiziologik mexanizmini tushuntirishi fan olamida keskin o'zgarish yasadi. I.P.Pavlov kashf etgan qator qonuniyatlar, xossalari, ikkinchi signallar tuzilmasi eksperimental ishlarni olib borishga puxta zamin hozirladi.I.M.Sechenov, I.P.Pavlov g'oyalariga asoslangan P.O.Efrusi, N.Ribakov, K.N. Kornilov, P.P. Blonskiy, L. S. Vigotskiy va boshqa olimlar yosh psixologiyasi bo'yicha qimmatli tadqiqotlarni amalga oshirdilar va yangidan-yangi qonuniyatlarni yaratdilar. XIX asr oxiri XX asr boshlarida G'arbiy Yevropa mamlakatlari va AQShda yosh psixologiyasi va pedagogik Psixologiya fanlarida ilmiy tadqiqotlarga asoslagan qator asarlar paydo bo'ldi. Amerikalik psixolog U.Djems «O'qituvchilar bilan psixologiya to'g'risida suhbat» (1902) asarida yosh davrining xususiyatlari haqidagi ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan mahlumotlarni chuqur tahlil qildi. K.Byuler xonim(1879-1963) o'zining ilmiy tadqiqotlarida faoliyatning har xil yosh davrlaridagi rolini, faoliyat turlarida fantaziya, tafakkur, nutq jarayonlarining rivojlanishini, aqliy faoliyat hamda uning rivojlanish bosqichlari(instinkt, dressura, intellekt)ni, shaxsning shakllanishida biologik va ijtimoiy omillarning ahamiyatini izchil o'rgandi.

Mazkur sohada tubdan farqlanuvchi g'oyalar, nazariyalar yuzaga keldi. Masalan, amerikalik psixolog S.Xoll(1844-1924) Gekkelning evolyutsiya qonuniyatini psixologiyaga bevosita ko'chiradi. Uning fikricha, irsiyat filogenezni ontogeneza takrorlaydi, xolos. Shvitsariyalik psixolog E.Klapared(1873-1940) S.Xolldan farqli o'laroq, ontogenez va filogeneza psixik funksiyaning o'sishini o'rganish uchun quyidagi holatlarga ehtibor beradi:

- a) organizm ehtiyojini qondirish;
- b) reflektor harakat to'siqda duch kelsa, ongli harakat vujudga keladi;
- v) unga nisbatan ehtiyoj sezsa, u holda mahlum faoliyat turiga yo'naltiriladi.

E.Klapared «Bola psixologiyasi va eksperimental pedagogika» kitobida qiziqish, motiv, ehtiyojlarning metodologik asoslari, bolalar tafakkurining xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlari, ularda dastlabki umumlashtirishning sinkretligi(aralash holatdaligi), o'xshashlik va farqlanishning bola ongida aks etishi to'g'risida mulohaza yuritadi.

L. S. Vigotskiy, A. N. Leontev, A.R. Luriya, D.B.Elkonin,

A. V. Zaporozets, M. I.Lisina tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, bolaning dastlabki ijtimoiy ehtiyojlaridan biri - bu muloqotga nisbatan ehtiyojdir. A.V.Zaporozets va M. I. Lisinalar tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, bolalarning kattalar bilan muloqotga kirishish ehtiyoji 7 yoshgacha bir nechta bosqichlar tarzida rivojlanib boradi:

Fransuz psixologi E.Dyurkgsim(1858-1917) o'sish-kishilarning his-tuyg'usini o'zlashtirish ekanini, shu boisdan idrok qilingan tashqi fikrlar va emotsiyalar bolaning ruhiy faoliyatini ifodalashini, bola tajriba, anhana, urf-odatlarini taqlid orqali egallashini, biologiyada irsiyat qanchalik

ahamiyatli bo'lsa, taqlid ham jamiyatda shunday o'rin tutishini uqtiradi. E.Dyurkgsimning fikricha, bola taqlid qilish qobiliyati bilan tug'iladi.

Fransuz psixologi P.Jane(1857-1947) psixik rivojlanishning biologik va ijtimoiy munosabatlar muammosi bilan shug'ullandi.

Uning nazariyasiga binoan inson psixikasi ijtimoiy munosabatlarga bog'liq, zotan jamiyat va tabiat o'rtasidagi turli aloqalar sistemasining shakllanishi insonning o'sishini belgilaydi, u aloqa deb, xatti-harakatni tushunadi. Bu esa kishining atrof muhitga shaxsiy munosabatidan boshqa narsa emas, albatta. P.Janening fikricha, eng qimmatli, ahamiyatli, ijtimoiy harakat hamkorlikdagi faoliyatda o'z ifodasini topadi, shaxslararo tashqi munosabatlar rivojlanishning prinsipi hisoblanadi. P.Jane o'z tadqiqotlarida psixikaning to'rt darajasi:

- a) motor reaksiyasiyning o'sishi;
- b) perseptiv harakatning o'sishi;
- v) shaxsiy-ijtimoiy harakatning o'sishi(o'zining harakatini boshqa kishilarga moslashtirish);
- g) intellektual sodda xatti-harakatning o'sishi(nutq va tafakkurning rivojlanishi) mavjud ekanliginn asoslagan.

Shvsitsariyalik psixolog J.Piaje(1896-1980) insonning kamol topishini bir necha davrlarga ajratib o'rganishni tavsiya qiladi:

Bola tashqi muhit mahlumotlami qayta ishlash.

Tafakkur:

- a) ijtimoiy davrgacha;
- b) ijtimoiy davr.

Intellekt:

- a) sensomotor - 2 yoshgacha;
- b) operatsional davrgacha - 2-7 (8);
- v) yaqqol operatsiya davri - 7 (8)-11 (12) yoshgacha;
- g) rasman (formal) operatsiya davri- 11 (12)-15 yoshgacha.

AQShlik psixolog Dj.Bruner(1915) shaxsning tarkib topishi bilan ta'lim o'rtasida ikki yoqlama aloqa mavjudligini aytib, insonning kamolot sari intilishi bilim olish samaradorligini oshirsa, o'qitishning takomillashuvi uning ijtimoiylashuvi jarayonini tezlashtiradi, deb uqtiradi. Shu tarifa yosh psixologiyasi fani qator rivojlanish bosqichlaridan o'tib, bugungi darajasiga erishdi. Uning rivojlanishiga O'rta Osiyo allomalari; rus va chet ellar psixologlari munosib hissalarini qo'shdilar. Yuqorida aytilgan nazariyalar, amaliy va ilmiy mahlumotlar, tadqiqotchilar yaratgan metodikalar o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Hozirgi psixologiyaning yirik vakili A.V.Petrovskiy inson kamolotiga, shaxsning tarkib topishiga sotsial-psixologik nuqtai nazardan yondashib, yosh davrlarining o'ziga xos tasnifini yaratdi.

A.V.Petrovskiygacha psixologlar shaxsning bir tekis kamol topishini o'rgangan bo'lsalar, u shaxs shakllanishining prosotsial(ijtimoiy qoidalarga muvofiq) va asotsial (aksilijtimoiy) bosqichlari ham bo'lishi mumkinligini isbotlab berishga harakat kiladi: shaxsning kamol topishi uchta makrofazadan iboratligini qayd etib, birinchisi - bolalik davriga to'g'ri kelishini, unda ijtimoiy muhitga moslashish, ko'nikish(adaptatsiya) ro'y berishini; ikkinchisi - o'smirlarga xos individuallashtirish; uchinchisi - o'spirinlikda, yahni yetuklikka intilish davrida o'ziga xos holatlarni muvofiqlashtirish(birlashtirish) xususiyatlari paydo bo'lishini bayon qiladi, shaxsning shakllanishi quyidagi bosqichlarda amalga oshirishini tahkidlaydi:

1. Ilk bolalik(maktabgacha tarbiya yoshidan oldingi davr) - tug'ilganidan 3 yoshgacha.
2. Bog'cha davri - 3 yoshdan 7 yoshgacha.
3. Kichik maktab yosh davri - 7 yoshdan 11 yoshgacha.
4. O'rta maktab yoshi (o'smirlik) davri- 11 yoshdan to 15 yoshgacha.
5. Yukori sinf o'quvchisi(ilk o'spirinlik) davri - 15 yoshdan 17 yoshgacha.

A.V.Petrovskiyning tasnifi mukammal bo'lsa-da, kamolotning oraliq bosqichlarini, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalamaydi. Vaholanki, o'sish ijtimoiy qoidalarga muvofiqmi yoki aksil ijtimoiymi, baribir, har ikki yo'nalishning ham oraliq jabhalari bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Lekin bu g'oyani chuqur ifodalab berish joiz.

D.I.Feldshtsin tasnifi ham shaxsga ijtimoiy yondashuvga asoslangan bo'lsa-da, A.V.Petrovskiy tasnifidan keskin farq qiladi. Uning fikricha, inson shaxs sifatida shakllanishda ikkita katta bosqichdan o'tadi, ulardan biri «Men» jamiyat bilan nuqtai nazardan iborat bo'lib, quyidagi yosh pallalarini qamrab oladi:

- 1) ilk bolalik - 1 yoshdan 3 yoshgacha;
- 2) kichik maktab yoshi davri - 6 yoshdan 9 yoshgacha;
- 3) katta maktab yoshi davri- 15 yoshdan 17 yoshgacha.

Shaxs kamolotidagi ikkinchi nuqtai nazar – «Men va jamiyat» deb nomlanib, quyidagi yosh bosqichlaridan iborat.

- 1) go'daklik - tug'ilganidan 1 yoshgacha;
- 2) maktabgacha davr - 3 yoshdan 6 yoshgacha;
- 3) o'smirlik-10 yoshdan 15 yoshgacha.

D.I.Feldshtsin boshqa tadqiqotchilardan farqli ravishda o'smirlik davrini uch bosqichga ajratadi:

Birinchi bosqich (10-11 yosh) o'ziga munosabatni kashf qilishdan iborat bo'lib, o'zini shaxs sifatida his qilish va qathiy qarorga kelish bilan yakunlanadi.

Ikkinchi bosqich (12-13 yosh) bir tomondan o'zini shaxs sifatida tan olish, ikkinchi tomondan o'ziga salbiy munosabatda bo'lishdir.

Uchinchi bosqich (14-15 yosh) tezkorlik, o'zini-o'zi baholashga moyillik bilan farqlanadi. Bolalarda «Men jamiyat bilan» nuqtai nazari ilk bolaliq kichik maktab yoshi, katta maktab yoshi davrlarida faol va keng tus oladi, faoliyatning amaliy-predmetli jihatlarida jadal o'sish jarayonida bo'ladi. Ularda «Men va jamiyat» nuqtai nazari vujudga kelishi maktabgacha va o'smirlik davrlariga to'g'ri kelib, ularning ijtimoiy xatti-harakat normalarini, qoidalarini o'zlashtirishlari va boshqa shaxslar bilan munosabat o'rnatishlari, o'zaro muloqotga kirishishlari bilan ifodalanadi. Ana shu murakkab ijtimoiy-psixologik harakatlarga asoslangan. D.I.Feldshtsin bolaning ijtimoiy o'sishdagi jamiyatga munosabatini asosiy (bosh) va oraliq munosabatlarga ajratadi. Bolada jamiyatga munosabatning shakllanishi ijtimoiylashuv, individuallashuvning tarkibiy qismlarini egallash va bir davrdan ikkinchi davrga o'tish orqali amalga oshadi. Asosiy (bosh) munosabat - insonning kamol topishida keskin iljish nuqtalari paydo bo'lishi, ichki sifat o'zgarishlari vujudga kelishi va yangi xislatlar tarkib topishining mahsulidir.

Shuni alohida ta'kidlash kerak-ki, D.I.Feldshtsinning yosh davrlariga ajratish nazariyasi ontogenezdagi barcha psixologik holat va fazilatlarni ifodalash imkoniyatiga ega emas, ammo u ta'lim-tarbiyaning sifatini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilgan amaliy ahamiyat kasb etadi.

Umuman psixologlar tomonidan yosh davrlarini tabaqalashtirishning puxta ilmiy-metodologik negizga ega bo'lgan qator nazariyalari ishlab chiqilgan. Ular ontogenetik qonuniyatlarni yoritishga katta hissa bo'lib qo'shildi, amaliy va nazariy muammolarni hal qilishda keng qo'llanmoqda. Ammo hozir ontogenezni to'la yoritishga xizmat qila oladigan nazariyani yaratish zarurati tug'ildi.

Rus psixologiyasidagi yosh davrlarini tabaqalash muammosi dastlab L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, B.G.Anan'ev singari yirik psixologlarning asarlarida o'z aksini topa boshlagan. Keyinchalik bu muammo bilan shug'ullanuvchilar safi kengayib bordi.

L.I.Bojovich har bir bosqichni psixologik tavsiyalashda unda namoyon bo'ladigan o'zgarishlarni, bu o'zgarishlarning sabablari, omillari, manbalari, turtkilari, mexanizmlarini ham bayon qiladi.

D.B.Elkoninning tasnifi yetakchi faoliyat(A.N.Leontev) nazariyasiga, har qaysi rivojlanish pallasida faoliyatning biror ustunlik qilishi mumkinligiga asoslanadi. Yetakchi faoliyatning inson shaxs sifatida kamol topishidagi roli nazariyaning negizini tashkil qiladi.

D.B.Elkonin yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratishni lozim topadi:

go'daklik davri - tug'ilgandan 1 yoshgacha asosiy faoliyat - bevosita emotsional muloqot;
ilk bolalik davri- 1 yoshdan 3 yoshgacha; asosiy faoliyat-predmet bilan nozik harakatlar qilish;

maktabgacha davr - 3 yoshdan 7 yoshgacha; asosiy faoliyat - rolli o'yinlar;

kichik maktab yoshi davri - 7 yoshdan 10 yoshgacha; asosiy faoliyat - o'qish;

kichik o'smirlik davri - 10 yoshdan 15 yoshgacha: asosiy faoliyat - shaxsning intim muloqoti;

katta o'smirlik yoki ilk o'spirinlik davri 16 yoshdan 17 yoshgacha; asosiy faoliyat - o'qish, kasb tanlash;

D.B.Elkonin tasnifini, ko'pchilik psixologlar mahqullashiga qaramay, unda ayrim munozarali jihatlar ham bor. Umuman esa D.B.Elkoninning mazkur nazariyasi psixologiya fanida, ayniqsa yosh davrlari psixologiyasida muhim o'rin tutadi.

1.2.Shaxslararo munosabatlar psixologiyasi

Ijtimoiy munosabatlar aslida odamning siyosiy munosabatlaridan tortib, uning shaxslararo munosabatlari xususiyatlarini o'z ichiga olgan murakkab jarayondir. Bu jarayonni turli nazariy oqim vakillari o'zlaricha o'rganishlari ma'lum. Masalan, interksionizm vakillari uni shaxslararo o'zaro ta'sirning turlicha namoyon bo'lishi shaklida tushunsalar, ijtimoiy almashinuv nazariyasi tarafdorlari – odamlarning bir-birlariga nisbatan talablari, kutishlari va manfaatdorliklarining o'zaro almashinuvi jarayoni sifatida tasavvur qiladilar. Shunga o'xshash xozirda turli tuman yondoshuvlar mavjud, lekin ularning barchasini birlashtiradigan yagona g'oya – bu odamlar o'rtasida sodir bo'ladigan o'zaro ta'sir va aloqa jarayonlarining mexanizmlarini aniqlash xamda ushbu jarayonni boshqarish usullarini ishlab chiqishdir.

Yana bir muxim fikr shunday iboratki, xar qanday ijtimoiy munosabatlar ko'pqirrali, bo'lib, xar birining o'ziga xos kechish xususiyatlari va shart-sharoitlari, qonuniyatlari bo'ladi. Agar raxbar o'z jamoasidagi insoniy munosabatlar asosan nimaga asosan kechishini bilsa, uni boshqarish oson. Shunga ko'ra ta'kidlash mumkinki, agar jamoada xaqiqiy smarali, ijodiy mexnatga safarbar etuvchi iqlim tashkil qilinmagan bo'lsa, odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va muomala xam asosan xissiyotlarga, odamlarning bir-birlarini xurmat qilishlari, yoqtirish-yoqtirmasliklariga asoslanib qoladi. Odamlar ishga otlanar ekanlar, avvalo kimlarni ko'rishlari, kimlar bilan tushlikka chiqishlari yoki bir sol atrofida o'tirishlari, vaqtini o'tkazish uchun qaysi krossvord yoki gazetani o'qishini g'amini yeb keladi. Demak, bunday jamoada ish qoniqarsiz tashkil etilgan bo'lib, odamlar o'rtasidagi munosabatlar sof emosional-xissiy muomalaga tayanadi. Ana shunday yerlarda guruxbozlik, jamoaning kichik-kichik guruxchalarga bo'linib ketishi, buning oqibatida bir nechta norasmiy liderlarning paydo bo'lib, xar biri o'z "ixlosmandlarini" o'ziga xos manfaatlar bilan atrofida birlashtirayotganligini ko'rish mumkin. Boshqa jamoada esa ish butunlay boshqacha tashkil etilgan bo'lishi mumkin. Oqil va tashabbuskor raxbar qo'l otsida ishlayotganlar jamoani bir yaxlitlik deb tasavvur qilib, ishga ketayotganda, eng avvalo kecha oxiriga yetkazolmagan ishlari bor-yo'qligini, bugun qanday ishni va kim bilan, kim orqali bitkazishini, ishni yanada yaxshilash uchun bugun yana qanday choralar ko'ra olishi xaqida o'ylaydi. Jamoaning xar bir a'zosi eng avvalo ishni o'ylab uyidan chiqadi. Demak, bunday jamoadagi o'zaro shaxslararo munosabatlar xam ishchanlikka asoslannadi va jamoaning eng tashabbuskor, fidoiy, aqlli a'zosi kim bo'lishidan, yoshi yoki jinsidan qat'iy nazar, norasmiy obro'ga ega bo'lishi va liderlikka da'vogar bo'lishi mumkin. Raxbar esa ana shunday tashabbuskor, mexnatkash, jonkuyar odamlar bilan doimo xisoblashadi va ular fikriga quloq soladi. Bundan raxbarning maxorati uning ana shu jamoadagi norasmiy va rasmiy liderlar bilan xamkorlikda ishlash olish san'ati bilan baxolanadi.

Bundan tashqari, xar bir konkret vaziyatda va jamoada odamlar o'rtasidagi munosabatlarning tukrli shakllari namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, ular o'rtasidagi o'zaro munosabat faqat rasmiy aloqalar bilan cheklanmay, bir vaqtning o'zida norasmiy, shaxsiy munosabatlar bilan uyg'unlashadi. Agar umuman jamiyat miqyosida oladigan bo'lsak, ijtimoiy munosabatlarning siyosiy, iqtisodiy, xuquqiy, mafkuraviy, diniy, ma'naviy soxalarda ro'y beradigan shakllarini xam farqlash mumkin

1.3. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar psixikasi

Kichik maktab yoshi davriga 6-10 yoshli boshlang'ich (I-IV) sinflarning o'quvchilari kiradi. Bola maktab ta'limiga bog'chada tarbiyalanayotganida tayyorlanadi. Bunda u maktabda o'quvchilarga quyiladigan har xil talablar bilan tanishadi, fan asoslarini o'rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyor bo'ladi.

Ta'limga psixologik tayyorlik deganda, bolaning obektiv va subektiv jihatdan maktab talabiga munosibligi nazarda tutiladi. U maktab ta'limiga avval psixologik jihatdan tayyorlanadi, binobarin, uning psixikasi bilim olishga yetarli darajada rivojlanadi, shu yoshdagi bola idrokining o'tkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, o'zining qiziquvchanligi, dilkashligi, xayrixohligi, ishonuvchanligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining yaqqolligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta'limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo'ladi. Bola diqqatining xususiyatlari roli va syujetli o'yinlarda, rasm chizish va qurish-yasash mashg'ulotlarida, loy hamda plastilindan o'yinchoqlar tayyorlashda, o'zgalar nutqini idrok qilish va tushunishda, matematik amallarni yechishda, hikoya tinglash va tuzishda ko'rinadi. Bola o'z diqqatini muayyan obektga yo'naltirish, to'plash, taqsimlash bo'yicha mahlum darajada ko'nikmaga ega bo'lib, o'z diqqatini boshqarish va kerakli paytda to'plashga intiladi. Uning xotirasi qiziqarli, ajoyib-g'aroyib, kishini taajjubga soladigan mahlumot va hodisalarni puxta esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu davrgacha bevosita kattalar rahbarligida u yoki bu axborotlarni o'zlashtirib kelgan bo'lsa, o'z xohish-irodasi bilan zarur mahlumotlar to'plashga, o'z oldiga aniq maqsad va vazifa qo'yishga harakat qiladi. Bolaning ana shu faolligi xotirasining muayyan darajada rivojlanganini bildiradi. U shehr, hikoya va ertaklarni esda qoldirish uchun ko'p takrorlashi, yod olishning eng qulay yo'l va usullaridan foydalanishi ta'lim jarayonida unga juda qo'l keladi, birinchi sinf o'quvchisi ko'pincha yaqqol obrazli xotiraga suyanib bilish faoliyatini tashkil etsa ham, bu ish xotiraning boshqa turlarini inkor qilmaydi, aksincha, ta'lim so'z-mantiq xotirasini taqozo etadi. So'z-mantiq xotirasining mavjudligi mahnosini tushunib esda olib qolish jarayonining samaradorligi ortishiga keng imkoniyat yaratadi. Tajribadan mahlumki, bola mahnosiz so'zlardan ko'ra mahnodor tushunchalarni birmuncha tez va mustahkam eslab qolish xususiyatiga ega. Uning nutqi maktab ta'limiga tayyorgarlik bosqichida kattalar bilan muloqotga kirishish, kishilarning fikrini uqib olish va to'g'ri idrok qilish darajasida, nutqining tuzilishi esa, grammatika qoidalariga mos, mantiqan izchil, ifodali, miqdor va ko'lam jihatdan fikr almashishga yetarli bo'ladi. U eshitgan va ko'rganlari to'g'risidagi mahlumotlarni tushuna oladi. O'zidagi axborotlarni muayyan tartibda bayon qila biladi, aqliy faoliyat operatsiyalaridan o'rinli foydalanadi(ularni taqqoslaydi, oydinlashtiradi, guruhlariga ajratadi, umumlashtiradi, hukm va xulosa chiqarishga harakat qiladi). Yirik psixologlarning tadqiqotlari oqilona tashkil qilingan ta'lim jarayoni mazkur yoshdagi bolalarni tafakkurini jadal rivojlantiradi.

Masalan, ular lingvistika, fizika, matematikaga doir ilmiy tushunchalarni o'zlashtiradilar, soddaroq masalalar tuzadilar, yengilroq mashqlarni bajara oladilar, ijodiy va mahsuldor fikr yuritishga intiladilar. Olti yoshli bolaning psixik tayyorligi to'g'risida gapirilganida ko'pincha muayyan reja asosida, tartibli, ko'p qirrali maqsadga yo'naltirilgan, o'zaro mantiqiy bog'liq, izchil boshlang'ich ta'limga zamin vazifasini o'tovchi psixik o'sish darajasini nazarda tutamiz. Shuningdek, ta'lim uchun psixik o'sish darajasidan tashqari, bola turmushi va faoliyatining tafovutlari, sharoitlari, o'ziga xosligi, uning sihat-salomatligi, usuliy jihatdan tayyorgarligi, oddiy ko'nikmalarni o'zlashtirgani kabi omillarni hisobga olish maqsadga muvofikdir. Yuqorida aytilganlarning hammasi bolaning maktab ta'limiga psixologik jihatdan tayyorligining obhektiv tomonlarini ifodalaydi. Bola maktab ta'limiga psixologik tayyorlanishining subhektiv tomoni ham mavjuddir. Uning maktabda o'qish xohishi, intilishi, katta yoshdagi odamlar bilan muloqotga kirishish istagi mazkur tayyorgarlik bilan uzviy bog'liqdir. Bolada shu davrga kelib, o'qish, bilim olish haqida to'g'ri tasavvur shakllanadi. U maktab jamoasi a'zolarining mashuliyatli vazifalarini anglaydi va ularga itoat qilishga, ularning ko'rsatmalarini bajarishga moyil bo'ladi. Lekin bolalar hammasi bir xil emasligi sababli ular o'rtasida muhim farqlar vujudga keladi. Bahzi bola maktabga butun vujudi bilan talpinadi, o'qishga qancha vaqt qolganligini uzluksiz sanaydi, o'kuv ashyolarini oldinroq tayyorlab qo'yishga harakat qiladi. Boshqa bir bola esa maktabdan qat'iy voz kechishgacha borib yetadi. O'qishga salbiy munosabat ko'pincha kattalarning qo'rqitishlari oqibatida vujudga keladi. Shuningdek, aka va opalarining maktabdagi qiyin kechinma va vaziyatlar to'g'risidagi gaplari, uyda bolalarni ko'proq dars tayyorlashga majbur qilish ham o'qishga salbiy munosabat uyg'otadi. O'qishga salbiy munosabatdagi bolalar ta'lim muhitiga kirishishga qiynaladilar, qator ruhiy to'siklarga duch keladilar.

Maktabda ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil qilishda kichik maktab yoshidagi bolalarning anatomik-fiziologik xususiyatlari, jismoniy kamolot darajasini hisobga olish muvaffaqiyat garovidir.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi biologik-jihatdan nisbatan uyg'un o'sadi, uning bo'yi va og'irligi, o'pkasining hajmi mutanosib rivojlanadi. Biroq, bolaning suyaklari(ko'krak qafasi, tos, qo'l suyaklari), umurtqa pog'onasida hali tog'aysimon to'qimalar uchraydi, bu esa uning suyak tizimi takomillashib bo'lmaganini ko'rsatadi. Yurak muskullari tez o'sadi, qon tomirlarining diametri sal kattaroq bo'ladi, miyaning og'irligi boshlang'ich sinflarda 1250-1400 grammni tashkil etadi. Miya po'stining analitik-sintetik faoliyati takomillashadi, qo'zg'alish bilan tormozlanish o'rtasidagi munosabat o'zgaradi, lekin qo'zg'alish nisbatan ustunlikka ega bo'ladi. Shuning uchun bolaning to'g'ri o'sishiga g'amxurlik qilish, toliqishining oldini olish, o'qish va ham olish rejimiga qat'iy rioya etish zarur.

Maktab ta'limi o'quvchining turmush tarzini, ijtimoiy mavqeini, sinf jamoasi va oila muhitidagi ahvolini o'zgartiradi, uning asosiy vazifasi o'qishdan, bilim olish, ko'nikma va malakalarni egallash, tabiat

va jamiyat to'g'risidagi qonuniyatlarni o'zlashtirishdan iborat bo'lib qoladi. Ta'lim muayyan darajada uyushqoqliq intilish, irodaviy zo'r berish, faollik va maqsadga muvofiq faoliyatni talab qiladi. Ixtiyorsiz xatti-harakat o'rnini anglashilgan, rejali, aqliy mehnat egallay boshlaydi. O'quvchi doimo tengdoshlari bilan birga muayyan sinf jamoasida bo'ladi. Demak, uning oldida hamma vaqt sinf jamoasining manfaatini himoya qilish, shaxsiy istaklarini umumjamoaga yig'ilishiga bo'ysundirish, o'zaro yordam, o'zaro talabchanlik, ijtimoiy javobgarlik va burch hislarini egallash vazifasi turadi. Ta'lim jarayonida esa o'quvchi oldiga qo'yiladigan talablar tobora ko'payib va murakkablashib boraveradi.

O'qishning dastlabki kunidanoq kichik maktab yoshidagi bolaning o'sishini harakatga keltiradigan turli ziddiyat, qarama-qarshiliklar, ichki ixtiloflar vujudga keladi. Ana shular zaminida boladagi psixik kamolotning darajasi va ijobiy xislatlar bilan talablar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar yotadi. Talablarning tobora ortishi bolaning psixik jihatdan to'xtovsiz o'sishini taqazo etadi va shu berik zanjirning uzluksiz harakati natijasida insonning kamoloti amalga oshadi.

Kichik maktab yoshidagi bolaning muhim xususiyatlaridan biri unda o'ziga xos ehtiyojlar mavjudligidir. Bu ehtiyojlar o'z mohiyati bilan muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga, tevarak-atrofdagi voqelikni o'zlashtirishga qaratilmay, balki faqat o'quvchilik istagini aks ettirishdan iboratdir. Shu ehtiyojlar o'z portfeliga, dars tayyorlash burchagiga, kitob qo'yish javoniga ega bo'lish istagi, kattalardek har kuni maktabga qatnash tuyg'usi yotadi, xolos. Bundan tashqari, bilimlar kunidagi shodiyona ayyom, o'quvchilik safiga qabul payti, maktab mahmuriyati va o'qituvchilarning unga bildirgan samimiy tilaklari, yuqori sinf o'quvchilarining tabriklari bolaning his-tuyg'usiga ijobiy ta'sir etadi. Sinfdagi o'rtoqlari bilan qatorlashib saf tortib yurishlar, birgalashib o'ynash, oshxonaga borish, o'qituvchining o'g'itlari ham bolani o'ziga rom etadi. Umuman, kichik maktab yoshidagi bola o'qishning tub mohiyati va vazifasini tushunib yetmaydi, balki hamma maktabga borishi kerak, deb tushunadi. Ammo, u kattalarning ko'rsatmalariga amal qilib tirishqoqlik bilan mashg'ulotlarga kirishib ketadi.

Oradan ma'lum vaqt o'tgach shodiyona lahzalarning ta'siroti kamayishi bilan maktabning tashqi belgilari o'z ahamiyatini yo'qota boradi va o'qishning kundalik aqliy mehnat(irodaviy zo'r berish, yoqtirmagan narsa bilan shug'ullanish, diqqatni taqsimlash o'z xulqini idora qilish) ekanligini anglaydi. Shunday aqliy mehnat ko'nikmasiga ega bo'lmasa, uning o'qishdan ko'ngli soviydi, unda umideyzlik hissi vujudga keladi. O'qituvchi esa bunday holning oldini olish uchun bolaga ta'limning o'yindan farqi, qiziqarliligi haqida ma'lumotlar berishni va unishu faoliyatga tayyorlashi kerak.

Birinchi sinf o'quvchisida o'qish faoliyatining aynan o'ziga qiziqish ko'zga tashlanadi. Maxsus tadqiqotlarda bolalar bilan keraksiz mashqlar o'tkazilgan va ularga oldindan bu mashqlar

keyinchalik kerak bo'lmashligi aytilgan, lekin bolalar ularni bajonidil bajarishga kirishganlar. O'quvchi shaxsiy faoliyatda erishgan dastlabki yaxshi natija uni boshqa natijalarni egallashga undaydi. Uning o'qish faoliyatidagi birinchi mehnat mahsuli shodlik va quvonch his-tuyg'usini keltirib chiqaradi. Masalan, ayrim o'quvchilar u yoki bu matnni bir necha marta o'qishga harakat qiladi. O'qish faoliyatiga qiziqish, uning mazmuniga ham qiziqishni vujudga keltiradi, bilim olish ehtiyojini tug'diradi va o'qish motivlarini tarkib toptiradi.

Ta'limning mazmuniga, bilimni egallashga qiziqish o'quvchining o'z aqliy mehati natijasidan qanoatlanish hissi bilan uzviy bog'liqdir. Bu his o'qituvchining rag'batlantirishi bilan namoyon bo'ladi va o'quvchida samaraliroq ishlash mayli, istagi, ishtiyoqini shakllantiradi. Bolada paydo bo'lgan faholayani, o'z kuchiga ishonch hislari, bilimlarni o'zlashtirish va malakalarni mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Rag'batlantirish va jazolash mehyorida bo'lsagina, ularning tarbiyaviy ta'siri ortadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar faoliyatini baholash unda o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir. Mahlumki, maktablarda bolalarni og'zaki baholash odat tusiga kirib qolgan, chunki birinchi sinf o'quvchisi ana shubaha ta'sirida o'z faoliyatini kuchaytiradi, ijodiy izlanishga harakat qiladi, hatto, o'quvchi dastlabki paytlarda yaxshi yoki yomon bahoning farqiga ham bormaydi, ko'proq nechta baho olgani qiziqtiradi. O'qituvchining rag'batlantirishi uning uchun eng muhim rol o'ynaydi.

Ko'pchilik mutaxassis olimlar kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni baholash salbiy oqibatlarga olib keladi, deb hisoblamodalar. Mahlumki, faqat baho uchunligi bilimning ijtimoiy ahamiyatini pasaytirishi mumkin. Shunga ko'ra bilimni tekshirishning boshqa usullarini topish hamda qo'llash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Negaki, baholashning bola kamoloti uchun ahamiyatini mutlaqo inkor qilish ham to'g'ri emas. Bahodan maslahat, yo'llanma, tavsiya, ko'rsatma sifatida foydalanish mahqul.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning muhim xususiyatlaridan biri ulardagi o'qituvchi shaxsiga ishonch hissi va yuksak ehtiromdir. Shuning uchun ham o'qituvchining bolaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyati juda kattadir. Bola o'qituvchini aqlu idrok sohibi, tiyrak, sezgir, mehribon, hatto, donishmand inson deb biladi. O'qituvchi siymosida o'zining ezgu niyati, orzu-istagi, ajoyib his-tuyg'ularini ro'yobga chiqaruvchi mo'htabar shaxsni ko'radi. O'qituvchining obro'si oldida ota-onalar, oilaning boshqa ahzolari, qarindosh-urug'lar, tanish-bilishlarining nufuzi keskin pasayadi. Shu sababli bolalar o'qituvchining har bir so'zini qonun sifatida qabul qiladilar.

Bola psixik jihatdan o'sishi natijasida uning o'qituvchi mavqeiga munosabati o'zgaradi, chunki unda ongli xatti-harakat ehtiyoji tug'iladi. O'quvchida bir talay muammolar, savollar vujudga keladi.

U

hayotda

hamma narsa o'zi o'ylagandek oson emasligini tushuna boshlaydi. Mazkur savollarga shaxsan o'zi javob topishga intiladi, shu savollarni boshqa odamlarga ham beradi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi o'zining obro'sidan oqilona, odilona va omilkorlik bilan foydalanib, o'quvchilarda uyushqoqliq mehnatsevarliq o'qishga ijobiy munosabat, o'z diqqatini boshqarish, xulqini idora etish, o'zini tuta bilish, qiyinchiliklarni yengish kabi fazilatlarini shakllantirishi lozim. Buning uchun har tomonlama ta'sir ko'rsatish usulini qo'llashi kerak.

Maqsadga muvofiq o'qish faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning aql-idroki, sezgirligi, ko'zg'atuvchanligi, uquvligi, esda olib qolish, esga tushirish imkoniyatlarini rivojlantirish uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi, bolalarda o'qish, yozish, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Bundan tashqari, mazkur ta'lim jarayonida ularning bilimlari ko'lami kengayadi, bilishga qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobiliyati rivojlanadi, ularda tafakkurning faolligi, mustaqilligi, mahsuldorligi ortadi, aqliy imkoniyatni ishga solish vujudga keladi, o'quv fanlariga ijobiy munosabat, qat'iy shug'ullanish niyati, jamoatchilik oldida mashuliyatini his qilish, bilim olishning ijtimoiy ahamiyatini anglash tuyg'ulari tarkib topadi.

Quyida mazkur yoshdagi o'quvchilardagi sezgi, idrok, xotira, tafakkur kabi bilish jarayonlarining xususiyatlari va rivojlanishi to'g'risida qisqacha to'xtalamiz.

Mazkur yoshdagi bolalar o'z idroklarining aniqligi, ravonligi, sofliqi, o'tkirligi bilan boshqa yosh davridagi insonlardan keskin farqlanadi. Ular har bir narsaga, berilib, unga sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Buning sababini ularning oliy nerv faoliyatida birinchi signal tuzilmasi ustunligi bilan izohlash mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchisi har qanday ob'ekt, sub'ekt va voqelikdagi yangilikni yaqqol idrok qilishga intiladi, uni atrof muhitining sirli olami, jilolanishi, jozibasi o'ziga tortadi. Lekin ta'limning dastlabki bosqichida idrokning ayrim zaif tomonlari ko'zga tashlanadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar idrokining salbiy xususiyati ob'ektlarni bir-biridan farqlashdagi zaiflikdir. Ular ko'pincha o'rganiladigan materialni noaniq, hatto, noto'g'ri idrok qiladilar, buning oqibatida aynan o'xshash harflar, so'zlar, narsalar tasviri, shakli, fazoviy joylashuvining farqini to'la tasavvur qila olmaydilar. Masalan, «q» bilan «k» harflarini, «uqish» bilan «o'qish» so'zlarini aylana bilan doira shakllarini, kesma bilan to'g'ri chiziq alomatlarini bir-biridan farqlamaydilar. Bahzan esa ular kattalarning idrok ko'lami qamrab olmaydigan narsalarni payqaydilar. Bolalarda tartibli, maqsadga muvofiq serqirra tahlil qilish faoliyati zaifligi uchun ular ta'lim jarayonida ko'pincha xatoga yo'l qo'yadilar. Odatda zarur va muhim alomatlar bir yoqda qolib, tasodifiy belgilarga ehtibor beradilar. Psixolog N.F.Dobrinin tasviriyl sanhat darsida o'quvchilarga rangli qilib ishlangan olmaxonning rasmini ko'rsatgan, so'ng uni chizishni tavsiya qilgan. Surat olib qo'yilgandan keyin bolalarda olmaxonning mo'ylovi, ko'zi, mo'ynasining rangi to'g'risida qator savollar paydo bo'lgan. Keltirilgan misoldan ko'rinib

turibdiki, kichik maktab yoshidagi bolalarda predmetlarni yaxlit, aniq idrok qilish imkoniyati juda chegaralangandir.

Mazkur yoshdagi o'quvchining idroki o'zining xatti-harakati, o'yin va mehnat faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Qandaydir narsani idrok etish o'sha narsa bilan mashg'ul bo'lishni anglatib keladi. O'quvchi o'zining ehtiyoji, mayli, qiziqishi, intilishi va turmush faoliyatiga mos, shuningdek, o'qituvchi tavsiya etgan narsalarni idrok qiladi, xolos.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar idrokining yana bir xususiyati xilma-xil, yorqin bo'yoqlar, yaqqol tasvir va his-tuyg'uga boyligidir. Shuning uchun ular avvalo yorqin his-tuyg'u uyg'otadigan narsa va hodisalarni idrok qiladilar. Ana shu sababli ramziy va shartli belgilar, chizmalar, geometrik shaklga ko'ra, jonli jozibador tasvirlar yorqin his-tuyg'u tarzida aks etadi. Ko'p fiziolog va psixologlarning fikricha, yorqin, rangli tasvirlarni idrok qilish ramziy va shartli chizmalarni idrok qilishni vaqtincha to'xtatib qo'yadi yoki ularning mohiyatini chalkashtirib yuboradi. Shuning uchun boshlang'ich sinf darsliklarining juda ko'p suratlar bilan bezatilishi ham mahqul emas. Chunki bunda o'qish surhati sekinlashadi, xatolar ko'payadi, suratlarning ko'pligi bolalarni matndan chalg'itadi. Bolada muayyan o'qish malakalari hosil bo'lgandan keyin kitob varaqlarini suratlar bilan bezash uning nutqi o'sishiga, mavzu va fanga qiziqish ortishiga yordam beradi. Ta'lim jarayonida kichik maktab yoshidagi o'quvchining idroki maqsadga muvofiq boshqariladigan perseptiv faoliyat darajasiga ko'tariladi. Bola o'qituvchining rahbarligida shaxsiy idrokni tashkil etish, o'z oldiga vazifa qo'yish, idrok mahsulini nazorat qilish va hokazolarni o'rgana boradi. O'quvchi ta'limning dastlabki bosqichida oqilona idrok etish uchun, keyinchalik esa o'sha narsani to'g'ri idrok etish uchun harakat qiladi. Bunda idrok etish asosiy maqsad bo'lsa, harakat qilish idrokning sharti vazifasini bajaradi.

Ta'lim jarayonida idrok maqsadga muvofiq perseptiv faoliyatga aylanib va tobora murakkablashib boradi, natijada o'quvchida kuzatish, nazorat qilish, farqlash imkoniyati oshadi. Shu sababli birinchi sinfda so'z biror narsani atash bilan chegaralangan bo'lsa, keyinchalik u o'rganilayotgan obyektning umumiy mahnosini anglata boshlaydi.

Idrokning takomillashuvi o'qituvchining bevosita rahbarligida amalga oshadi: u o'quvchilarga perseptiv faoliyatni omilkorlik bilan tashkil etishni, obyektlarning muhim va nomuhim belgilarini ajratishni, diqqatni to'plash va taqsimlashni, materiallarni rejali va tartibli tahlil qilishni o'rgatadi. Buning uchun bolalarni sayrga olib chiqadi, ko'rsatmali qurollardan foydalanadi, jismoniy va aqliy mehnat jarayonlarini taqqoslash, kuzatish malakalarini shakllantiradi. Idrokni rivojlantiradigan muhim vositalarning biri o'quvchilarda narsa va hodisalarning o'xshash va farqli alomatlarini ajratish uquvini tarkib toptirishdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining perseptiv faoliyatida fazo, vaqt va harakatni idrok qilishning o'ziga xos xususiyatlari bor bolalarda hayot tajribasining yetishmasligi, bilim saviyasining

qashshoqligi, tasavvur obrazlarining zaifligi tufayli idrokning mazkur shakllari juda cheklangan bo'ladi. Ular kundalik turmushda qo'llanadigan oddiy fazoviy tushunchalar bilan cheklanishi sababli ilmiy fazoviy atamalarni, masalan, torlarning balandligi, fazo bilan yer o'rtasidagi masofa, dengiz va ko'llarning hajmi va boshqalarni idrok etishda qiynaladilar. Katta fazoviy tushunchalarni anglamasliklari sababli ularda «Yulduzlarning oralig'i necha kilometr?», «Osmonga sharda uchib borsa bo'ladimi, samolyotda-chi?» kabi savollar tug'iladi. Bolalarning vaqtni idrok qilishi ham tor mahnodagi tushunchalardan iborat bo'ladi va ular asr, eramizdan avvalgi davr kabi atamalarni nimaligini tushunmaydilar. Harakat deganda bola ko'pincha jismoniy, mexanik harakatni nazarda tutadi, lekin uning biologik, ijtimoiy, kimyoviy harakatlarni bilishi to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emas. Bola, hatto samolyot, qush, raketa va uning tezligini ham noto'g'ri idrok qiladi. Masalan, u tabiatshunoslik darsida qirilib bitgan bahaybat kaltakesaklar haqidagi mahlumotni eshitgan bo'lsa, uyga kelib buvisidan uni ko'rgan yoki ko'rmaganligini so'raydi. Ta'lim jarayonida va kattalarning yordami bilan turmush tajribasining ortishi tufayli bolalarda fazo, vaqt va harakatni idrok qilish ko'lami kengayadi, ular vujudga kelgan savollarga javob topa boradilar. Bundan tashqari, ularning nazariy bilimlari amaliy faoliyatda sinab ko'rish orqali ham boyib boradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqatni irodaviy zo'r berish bilan boshqarish va favqulodda vaziyatga moslash imkoniyati yaxshi bo'lmaydi. Buning asosiy sababi ularda ixtiyoriy diqqatning kuchsizligi va beqarorligidir. Shu bilan birga kichik maktab yoshidagi bolalarning ixtiyoriy ongli diqqatga o'qish motivlari bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Odatda ularning o'qish motivlari uzoqni ko'zlagan va maqsad bilan bog'liq motivlarga ajratiladi. Yuqori sinf o'quvchilarining bilim olish motivlari uzoqni ko'zlagan motivga kirsam, boshlang'ich sinf o'quvchilarining motivlari voqelikka va reallikka bog'liq motivlardir.

Tajribadan mahlumki, bolalarda ixtiyorsiz diqqat durustgina rivojlangan bo'ladi. Chunki ta'lim jarayonida ixtiyorsiz diqqatning o'sishi uchun muhim shart-sharoitlar mavjuddir. Boshlang'ich sinf uquv materiallarining yaqqolliigi, yorqinliigi, jozibadorliigi o'quvchida beixtiyor his-tuyg'ular uyg'otadi, irodaviy zo'riqishsiz, osongina fan asoslarini egallash imkonini yaratadi. O'quv materiallarining turli-tumanliigi ixtiyorsiz diqqatning to'planishi, markazlashuvi va barqarorligiga iijobiy ta'sir etadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarni o'qitishda ko'rsatmalilikdan keng foydalaniladi. Bu tadbir birinchidan, bolalar faolliigini oshirsa, ikkinchidan, materialni mantiqiy jihatdan o'zlashtirishga, uni tahlil etish mavhumlashtirish va umumlashtirishga tusqinlik qiladi. Ularda ko'rsatmalilikka asoslangan dinamik stereotip paydo bo'lishi ham mumkin. Sunhiy to'siqlar, halal beruvchi alomatlardan qutulish uchun yaqqol va mavhum materiallardan aralash holda foydalanish yaxshi natija beradi. Bolaning ko'rsatmalilikka berilib ketishi uni asosiy maqsaddan uzoqlashtiradi, bola tashqi belgilarga ehtibor berishga odatlanib, ichki muhim belgilardan chetlasha boradi. Mahlumki, ixtiyorsiz diqqat ta'lim jarayonida o'quvchilarning qiziqishi bilan bevosita bog'lanib

ketsa, tabiiyki, ular faqat maroqli, quvonchli axborot va matnlar bilan tanishishga intiladigan bo‘lib qoladilar. Natijada o‘ta nozik, yahni tashqi qo‘zg‘atuvchilar ta‘siriga beriluvchi diqqat ularning psixikasida mustaqamlanadi. Odatlanish murakkab o‘quv materiallarini egallashda qiyinchiliklar tug‘diradi. Shuning uchun K.D.Ushinskiy, bolani faqat o‘zini qiziqtirgan narsa bilan emas, balki uni qiziktirmagan narsa bilan ham shug‘ullanishga o‘rgating, bola o‘z burchini bajarishdan qanoatlanish uchun ishlaydigan bo‘lsin, deb uqtirgan edi.

Birinchi va ikkinchi sinf o‘quvchilari diqqatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri uning yetarlicha barqaror emasligidir. Shuning uchun ular diqqatlarni muayyan narsalarga qarata olmaydilar va obhektga uzoqroq tura olmaydilar. Bunda tormozlanish bilan qo‘zg‘alish o‘zaro nomuvofiq harakat qiladi. O‘qish mashg‘ulotida tutilish, to‘xtab qolish, qiroat surhatining kamayishi, tovushning tebranishi va pasayishi, bahzida harf, ibora, gaplar tushib qolish hollari mana shu fiziologik mexanizm ta‘sirida paydo bo‘ladi.

Qator tadqiqotlar birinchi va ikkinchi sinf o‘quvchilari darsda faqat 30-35 daqiqa diqqat bilan o‘tirishi, o‘z diqqatini muayyan obhektga to‘plashi va unda ushlab turishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shuning uchun mashg‘ulotlarda qisqa tanaffuslar o‘tkazib turish maqsadga muvofiqdir. Professor N.F.Dobrinin 3-4-sinf o‘quvchilari o‘z diqqatlarini butun bir dars davomida saqlab tura oladilar. Lekin ular uchun ham qisqa tanaffuslar foydalidir. Shuningdek, vaqt-vaqti bilan mashg‘ulotning turini almashtirib surhatini o‘zgartirib turish, amaliy va nazariy mahlumotlarni qo‘shib olib borish lozim,-deydi. O‘quvchilar diqqatining xususiyati ko‘proq mashg‘ulotning surhatiga bog‘liqdir. Masalan, mashg‘ulot surhatining o‘ta tezligi yoki haddan tashqari sustligi diqqatning barqarorligi va to‘planishiga salbiy ta‘sir etadi. O‘quv mashg‘ulotlarining o‘rtacha surhatda o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

Ta‘lim jarayoni kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ixtiyoriy, barqaror, mustahkam, kuchli, to‘planuvchan, taqsimlanuvchan, faol, ongli diqqatini rivojlantirishga qulay shart-sharoit yaratadi. Bilim olish uchun mustaqil aqliy mehnat qilish, misol va masalalar yechish, mashqlarni bajarish, takrorlash, irodaviy zo‘r berishda ixtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi. Shuningdek uning eng zarur xususiyatlari takomillashadi, bu esa ongli boshqarish imkoniyatini beradi. Bolalarning diqqati o‘qish faoliyatiga doir maqsadga muvofiq, ijtimoiy motivlar, hamda ularda paydo bo‘layotgan yangi xislatlar(mashuliyatlilik, javobgarlik, uyalish hislari) bilan bir paytda rivojlanadi. Bu yoshdagi bolada ixtiyoriy diqqatni jamlash, tashkil qilish, zarur bo‘lsa, uni taqsimlash tashqi qo‘zg‘atuvchilarning qarshiligini yengib ongli ravishda boshqarish uquvi shakllana boshlaydi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar xotirasining eng muhim xususiyatlaridan biri - so‘z mantiq xotirasi va mahnosiga tushunib eslab qolish salmog‘ining ortishidir. O‘quvchi o‘z xotirasini ongli boshqarish, eslab

qolish, esga tushirish, esda saqlash jarayonlarini faoliyatning maqsadiga muvofiqlashtirish imkoniyatiga ega, bo'ladi.

Yuqorida aytilganidek, birinchi signal tuzilmasi ikkinchi signal tuzilmasidan birmuncha ustunligi tufayli o'quvchilarda mantiqiy xotiradan ko'ra ko'rsatmali-harakatli xotira muhimroq rol o'ynaydi. Shuning uchun ular nazariy qonun va qoidalar, mavhum tushunchalardan ko'ra yaqqol ma'lumotlar, axborotlar, voqea va hodisalarni, obrazlar va narsalarni tezroq hamda mustahkamroq eslab qoladilar va uzoq muddat esda saqlaydilar. Birinchi va ikkinchi sinf o'quvchilari ta'limiy materiallarning ichki bog'lanishlariga ahamiyat bermay, mahnosiga tushunmay quruq eslab qoladilar. O'rganilayotgan materiallarni mantiqiy tahlil qilmay, yodaki o'zlashtiradilar. Buning sabablari:

1) ularning mexanik xotirasi boshqa xotira turlariga qaraganda durustroq rivojlangani ma'lumotlarni aynan, o'zgarishsiz eslab qolish imkonini yaratadi;

2) o'quvchilar o'kituvchi qo'ygan vazifani anglab yetmaydilar, natijada uning tug'ri tushuntirib ber, degan talabini so'zma-so'z takrorlash deb biladilar;

3) ularning nutq boyligi yetishmasligi(ilmiy atamalar va til qonuniyatlarini bilmasligi) materialni ijodiy to'ldirish, unga qo'shimcha qilish imkoniyati yo'qligi uni so'zma-so'z qaytarishni osonlashtiradi;

4) o'quvchilar matnni to'g'ri usullar yordamida eslab qolishni bilmaydilar. A.A.Smironov eslab qolishning to'g'ri usuli sifatida matndagi mahnodosh so'zlarni guruhlariga ajratish, tayanch nuqtani topish, so'zlab berish uchun reja tuzish va o'tilgan mavzularni idrok etgan holda yangi mavzuyi takrorlashni tavsiya qiladi.

Ta'lim jarayonida o'kuv materiallarining mahnosini, mohiyatini, turli mulohazalarni, dalillarni, ilmiy asoslarni eslab qolish va esga tushirish orqali o'quvchilarda mantiqiy xotira takomillashadi.

Ularni A.A.Smironov tavsiya qilgan usul va vositalar bilan qurollantirish o'qituvchining vazifasi hisoblanadi. Aqliy mehnatda mustaqillikni vujudga keltirmay bilishga intilish qobiliyatini o'stirish mumkin emas. Shuning uchun bolalarga izohli o'qish, masalaning shartini sharhlash, muammoli vaziyatni yaratish va hal qilishni o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Ixtiyoriy eslab qolish va ixtiyoriy esga tushirishning mahsuldorligi ko'p jihatdan o'quvchilar aqliy faolligining darajasiga bog'liq. Aqliy faoliyat darajasi ularning eslab qolishni tashkil qilish va boshqarish usullarini egallashiga uzviy aloqadordir. Mnemik(xotira) usullarga tahrif yoki qoidani so'zma-so'z eslab qolish, o'z so'zi bilan aytib bersa bo'ladigan materialning mohiyatini eslab kolish, birlamchi va ikkilamchi qismlarga ajratish, raqamlarni bir joyga to'plash, eng zarur tushunchalarga alohida ehtibor berish kiradi. Eslab qolish, esda saqlash, esga tushirishning samaradorligi maqsadni anglash va unga intilish negizida vujudga keladi. Xotiraning samaradorligi o'qish motivlariga bevosita bog'liqdir. T.N.Balarich o'z tajribasida

bir guruh o'quvchilarga o'quv matnini bundan keyin sira kerak bo'lmashligini, ikkinchi guruhga undan tez kunda foydalanilishini aytib o'zlashtirishdi tavsiya qilgan. Olingan natijalarga ko'ra birinchi guruhda faoliyatda qo'llash ustanovkam yuqori samara bergan, matn tez eslab qolingan va uzoq vaqt esda saqlangan. L.V.Zankovning tadqiqotida ham eslab qolishga intilishning roli o'rganilgan, uzoq vaqt eslab qolishga intilish ham yaxshi samara berishi isbotlangan. Shunga asoslanib psixologi, faniga uzoq vaqt eslab qolish, hamma vaqt esda saqlash iboralari kiritilgan.

Umuman kattalarning, xususan o'qituvchilarning muhim vazifalaridan biri o'quvchilarda materiallarni eslab qolish uchun muayyan intilishni, tarkib toptirish, ularga eslab qolishyaing usullarini, fikr yuritish operatsiyalarini (taqqoslash, tahlil qilishni) o'rgatishdan iboratdir.

Xotiraning mahsuldorligini oshirish uchun ta'lim jarayonida o'zini o'zi nazorat qilish, materialni takrorlashda tekshirish, esga tushirish, mashq qilishdan unumli foydalanish zarur. Agar kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga eslab qolish va eslash usular o'rgatilmasa, ular materialni bevosita takrorlashda, uzoq vaqt to'xgalib qoladilar. Shuning uchun ham eslash qiyin mehnat(K. D. Ushinskiy) hisoblanadi. Lekin o'quvchilar materialni eslashni xush ko'rmaydilar. Materialni eslab qolish, esda saqlash, esga tushirish va eslash usullarini o'rgatish mantiqiy xotira o'sishining garovidir Kichik maktab yoshidagi o'quvchining xayoli o'z ukuv faoliyatining ta'siri, talabi, imkoniyat va shart-sharoitlari orqali tarkib topadi. Bolaning xayoli tevarak-atrof taassurotlari, dunyo ajoyibotlari, ko'rsatmalili, tasviriy sanhat asarlarini yetarli darajada aks ettirish bilan vujudga keladi. Obrazlar, suratlar, chizmalar, shartli belgilar, nomahlum narsalarning alomatlari, tabiat manzaralari, fazoviy tasavvurlar jamlanib o'quvchilarning xayoli paydo bo'ladi. Tanish obraz yaratish bilan uzviy bog'liq bo'lgan tiklovchi xayol bolaning ruhiy dunyosida alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonida bolalarning yorqin, aniq, tiniq, yaqqol tasavvur obrazlari xayol yordamida muayyan voqelikka aylanadi. O'rganilayotgan fan materiallari eshitilgan va o'qilgan badiiy asarlardagi obrazlar tartibga solinadi, yaxlit bir butunlikdan iborat umumlashgan obrazlar tizimi yaratiladi. O'qish davomida turmush tajribasida to'plangan taassurotlarni qayta tiklash, yangi belgilar bilan boyitish, ularni o'zaro birlashgan holatga keltirish yangi obrazlar, ijodiy izlanishning eng muhim omili-ijodiy xayolni takomillashtiradi.

Ijodiy xayolning eng muhim xususiyatlaridan biri yaratilgan tasvirlarning yaqqolliqi, mantiqiy qonunlarga uzviy bog'liqligi, g'ayritabiiy, ajoyib-g'aroyib istaklardan uzoqligidir. Shuning uchun o'quvchi xayolida turmushga, voqelikka zid kelmaydigan tasvirlar, timsollar ko'lam tobora kengayadi. Bu esa o'quvchida hodisalarni tanqidiy baholash ko'nikmasi paydo bo'lganini bildiradi. Natijada uning xayoli taassurot qurshovidan bo'shaydi, yaratilgan obrazlarni tabiat va jamiyatning obhektiv qonunlariga suyangan holda baholash ko'nikmasi yanada takomillashadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar xayolining xususiyatlaridan yana biri hayotiy voqelik bilan fantaziyaning o'zaro aralashib ketishidir. Mahlumki, o'quvchi yaqqol voqelik yoki hodisani o'zi yaratgan qo'shimcha obrazlar, tafsilotlar bilan boyitib boshqalarning diqqat-ehtiboriga uzatadi. Bu uning yolg'onchiligi emas, balki xayolining xususiyatidir. Ayrim bolalar haqiqat bilan fantaziyaning aralash holatiga chindan ham ishonadilar, bunda soddadillik bilan ishonuvchanlik uzviy bog'lanib ketgan bo'ladi. Bahzi hollarda mazkur yoshdagi o'quvchi boshqalarning diqqatini o'z axborotiga qo'shish maqsadida ham fantaziyaadan ununli foydalanadi. Bunday holat birinchidan, bola o'zining sinfdagi o'rtoqlari orasida yoki oilada allaqanday kamsitilganda, ikkinchidan, o'z tengqurlari yoki kattalar ko'z o'ngida o'zini uddaburon qilib ko'rsatish istagi tug'ilganda, uchinchidan, haqiqiy ijodiy obrazlar yaratish jarayonida namoyon bo'lishi mumkin. Biroq o'quvchilar xayolparastlikka, fantaziyaaga berilishining oldini olishga pedagoglar, umuman kattalar doimo ahamiyat berishlari kerak.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar tafakkurining xususiyatlarini o'rgangan olimlar bolaning tafakkurini quyidagi uch yo'nalishda tahlil qilganlar: tafakkurning yosh davriga xos xususiyati, uning rivojlanishi, tushunchalarni shakllantirish omillari.

Bolalar narsalarning o'zgarmaydigan bahzi belgilari doimiyligini payqay olmasligi ulardagi tafakkurning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Buni J.Piaje o'z tajribasida ko'rgan. Unda 7-8 yoshli bolalar xamirdan bir xil zuvala qilinsa, so'ngra ularning biridan kulcha yasalsa, xamirning miqdori bir xil bo'lmay qoladi, degan xulosa chiqarganlar. Mahlumki, ta'limning dastlabki bosqichida bolaning umumlashtirishi juda sodda bo'yaadi va faqat o'xshashlik belgisiga asoslanadi, keyinchalik esa bola narsa va hodisalarning tashqi sifat va xususiyati belgilarini guruhlariga ajratish va tasniflashga, narsa va hodisalarning xossalari, qonuniyatlari, murakkab ichki bog'lanish va munosabatlarining muhim belgilari bo'yicha umumlashtirishga o'tadi. Birinchi va ikkinchi sinf o'quvchilari o'kuv faoliyatlarini buyumlarning jozibador tashqi belgilariga tayanib tashkil qiladilar: quyosh, momoqaldiroq, sigir, avtomobil, qush va hokazolar to'g'risida fikr yuritishda quyosh isitadi, yoritadi, momoqaldiroq guldiraydi, sigir sut beradi, avtomobil yuk tashiydi, qush sayraydi kabi hukmlar chiqaradilar, shuning uchun agar o'rganilayotgan materiallarning muhim belgi va alomatlarini bevosita aniqlash zarurati tug'ilsa, darrov ko'rinadigan misolga murojaat qiladilar. R.G.Natadzening tajribasida kichik maktab yoshidagi kit bilan delfinni farqlash imkoniyati yo'qligi mahlum bo'lgan va ular ikkalovini ham baliq, deb ataganlar. Bu hol umumlashtirish o'zga tashlanuvchi tashqi belgi va alomatlariga qarab amalga oshishini isbotlaydi. O'quvchilar uchinchi sinfga o'tganidan so'ng umumlashtirishda moddiy dunyo voqelikning eng muhim munosabat va bog'lanishlarini aks ettiruvchi ichki belgilarga tayanadilar. Jumladan, suv, havo, metall va boshqa narsalarning issiqdan kengayishini umumiy muhim alomatiga asoslanib umumlashtira oladilar. Bundan tashqari, o'simliklar duiyosi, ularning rivojlanishi, ko'payishi, changlanishi kabi belgilarga tayanib jonli

tabiat iborasini aytadilar. Bolalarning mulohazalaridan: paxta dalada o'sadi, uni paxtakorlar yetishtiradilar, zavodda tozalanadi, so'ng fabrikada to'qiladi, kiyim-kechak tayyorlanadi(2-sinf o'quvchisi). Bodom daraxti issiq iqlimli o'lkalarda o'sadi (1 sinf o'quvchisi), Tulki - yovvoyi yirtqich hayvon, u o'rmonda aytdi. Jonivorlarni tutib yeb tirikchilik qiladi, mo'ynasi qimmatbaho. Shuning uchun ovchilar uni ovlaydilar. Uning mo'ynasidan palto yoqalari, telpaq po'stin tikiladi(3-sinf o'quvchisi).

Bolalarning mulohazalaridan ko'rinib turibdiki, ularda muhim belgilar miqdori yetarli darajada emas. Ular o'simliklarni tahriflaganlarida faqat daraxtlarning qaysi turga mansubligi, qarlarda o'sishi, inson va hayvonlar uchun qanchalik foydaliligini tahkidlaydilar. Hayvonlar to'g'risida mulohaza yuritganlarida ham birmuncha kamchiliklarga yo'l qo'yadilar. Masalan, birlamchi xususiyatlar va xossalarga ehtibor bermaydilar. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar ta'lim jarayonida anchagina ilmiy tushunchalarni o'zlashtirsalarda, oldingi darslarda o'zlashtirilgan turli alomatlar, belgilar, xususiyatlarni qorishtirib, chalkashtirib ham yuboradilar. Chunki ularda tushunchalar tarkibiga kiradigan narsa va hodisalar bilan ularning belgilari o'rtasida uzviy bog'lanish tarkib topmagan bo'ladi. Ko'p tushunchalarni, chunonchi, baland-past, uzoq-yaqin, kam-ko'p va hokazolarni avval voqelikdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi fazoviy munosabatlarni bevosita idrok qilish asosida o'zlashtiradilar. Keyinroq esa, umumlashtirish jarayoni son tushunchasida ifodalangan bilimning miqdoriy munosabatiga asoslana boshlaydi. Shu sababdan ularga fazoviy munosabatlar haqidagi tushunchalarni o'zlashtirish juda qiyindir. Birinchi va ikkinchi sinf o'quvchilari o'zunlik o'lchovi birliklarini o'zlashtirishda ham qiynaladilar, chunki ular uzunlik o'lchovining asosiy belgisi uning uzunligini ajratishni bilmaydilar.

Ko'p hollarda bolalar metr, kilometr tushunchalarini buyumning shakli bilan tasavvur etishga harakat qiladilar. Uchinchi sinfga o'tganlaridan keyin murakkab fazoviy munosabatlarni egallashga kuchlari yetadi. Chunki ta'lim jarayonida ularning fazo to'g'risidagi tasavvurlari, tushunchalari kun sayin plan, masshtab, yer shari va qator shartli belgilar haqidagi bilimlar bilan boyib boradi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi vaqt tushunchasi bilan tanishadi, lekin u kundalik hayot tajribasi doirasidan chiqmaydi. Uchinchi sinf o'quvchilarida tarixiy mahlumotlar, xabarlar, axborotlarni o'qish va eshitish tufayli soat, yil, asr, o'n ming yillar burun, eramizdan oldingi uchinchi asr, yerda hayotning paydo bo'lishi kabi tushunchalar shakllana boshlaydi. Lekin ularda ham katta vaqt o'lchovi miqdorini kichik vaqt miqdoriga, o'tgan zamonni hozirgi zamonga almashtirib yuborshi hollari tez-tez uchrab turadi. Shuning uchun ikki xil tarixiy voqea to'g'risida fikr yuritishda sanadagi tafovutni sal undan keyin yoki sal ilgariroq deya, izohlaydilar, xolos.

O'quvchilarning bilim doirasi kengaygani sayin ular qat'iy hukmlardan taxminiy hukmlarga ko'cha boshlaydilar, yahni narsa va hodisalarniyag turli xususiyatlarga egaligini, voqelik atigi bir

harakatdan, bir sababdan emas, balki ko'p sabablardan paydo bo'lishligini anglash bosqichiga ko'taradilar. Taxminiy hukmlar ikkinchi sinfdan boshlab namoyon bo'ladi. O'quvchilar «Nega bugun falonchi darsda ko'rinmaydi, balki kasal bo'lib qolgandir, uxlab qolgandir, dars tayyorlay olmay, uyalganidan kelmagandir?» - deb gumonsirab, taxminiy mulohazalar yurita boshlaydilar, natijada taxminiy hukm chiqara boshlaydilar. Uchinchi sinfdan boshlab turli vaziyatlarni, holatlarni aniq dalillar bilan isbotlab berishga o'tadilar. Buning sababi bolalarning bilimi kundan-kunga osha borishi, ma'lum tizim hosil qilishidir. Ular bu paytda o'z hukmining chin yoki chin emasligini anglab yetadilar, bevosita muhokama qilish, dadil keltirish, isbotlashning shartlariga asoslanib fikr yuritish jarayoniga o'ta boshlaydilar. Bolalar narsa va hodisalarning paydo bo'lish sabablarini aniqlashda muammo, masala va savollar qo'yishdan tashqari, ularni hal qilishga, yechishga ham odatlanadilar. Biroq, ularning hukmi moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning ichki qonuniyatlarini, obektiv bog'lanishlari va munosabatlarini to'liq ifodalay olmaydi. Uchinchi sinfdan boshlab o'quvchilarda tushuncha va hukmlar rivojlanishi bilan birga turli narsa va hodisalar haqida yuritilgan muhokamalar asosida xulosa chiqarish ham o'zgarib boradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida induktiv va deduktiv xulosa chiqarish alohida ahamiyat kasb etadi. Xulosa chiqarish avval bevosita idrok qilinayotgan narsalar asosida vujudga keladi. U bevosita kuzatish idrok qilish jarayonida narsa va hodisalarning munosabatini, bog'lanishini aks ettiradigan xulosa chiqarish bo'lib, bolaning tafakkurida asosiy o'rin egallaydi. Chunki bunda yaqqol-obrazli tafakkurga tayanib-xulosa chiqariladi. Keiynchalik mavhum shart-sharoitlardan vujudga keladigan xulosa chiqarish turi paydo bo'ladi va u ko'rsatmalilik, sxemalar, chizmalar, tanish misol va masalalar, hodisalarga asoslanishda ko'rinadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun sabab-natija munosabatlarini ifodalovchi narsa va hodisalarni tahriflash juda murakkabdir. M.N.Shardakovning tajribasida uchinchi sinf o'quvchilari jismlarning kengayishi isitishga bog'likligini anglab yetmaganlar va barcha jismlar issikdan kengayadi, deb xulosa chiqara olmaganlar. Lekin alohida olingan jismlarning issikdan kengayishi hodisasini tushuntirib aytganlar, demaq jismlardagi umumiylikni, o'xshashlik belgilarini topa olmaganlar. Umumiy xulosani ko'ra eksperimentator yordamida chiqarganlar. Ta'lim jarayonida tafakkurning analitik-sintetik faoliyati muhim rol o'ynaydi. O'quvchi tahlil qilish jarayonida yaxlit munosabatni yoki narsani bo'laklarga ajratib, ularning uzviy bog'lanishini, aniqlaydi, sintezda esa buning aksini bajaradi, yahni bo'laklarning yaxlit buyumga bog'lanishini aniqlaydi. O'quvchilar tahlil va sintezni, taqqoslashni tahlil qilish orqali narsa va hodisalarning muhim belgilarini tasodifiy belgilaridan ajratishni o'rganadilar va shu tarifa o'zlarining mavhumlashtirish faoliyatlarini takomillashtiradilar.

Bolalarning bilimlar tizimini o'zlashtirishda tushunchalarni, qonuniyatlarni nomuhim belgisiga binoan o'rganishlari tez-tez uchrab turadi va bu hol o'quv materiallarini o'zlashtirishni

qiyinlashtiradi. Shuning uchun o'quvchilarga tushunchani to'g'ri umumlashtirish usullarini o'rgatish lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining umumlashtirish faoliyatini rivojlantirish maqsadida amalga oshirilgan tadqiqotlardan ma'lumki, yil oxiriga borib, bolalarning o'zlari mustaqil ravishda narsalarni muhim belgilariga asosan umumlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ularda mahalliy tushunchalar, atamalar, tushunchalar miqdori keskin kamayadi.

Boshlag'ich sinflardagi ta'lim jarayonida bahzan hissiy-yaqqol yoki empirik umumlashtirish usuli qo'llanadi va bu ish albatta, topshiriqning talabiga binoan amalga oshiriladi, narsa va hodisalarni guruhlariga ajratish va tasniflash lozim bo'lib qolsa, qo'shimcha shu usullardan ham foydalanish tavsiya qilinadi.

Bayon etilganlardan boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim jarayonida turli umumlashtirish va mavhumlashtirish usullaridan foydalanishi ma'lum bo'ladi, ularning mavhumlashtirish va umumlashtirish faoliyati to'rtinchi sinfgacha asta-sekin murakkablashib miqdori va sifati jihatdan o'zgarib boradi. Shunday qilib, maxsus tashkil etilgan mavhumlashtirish va umumlashtirish usullarini o'rgatish bolalar tafakkurining rivojlanishini yangi bosqichga ko'taradi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning tafakkuri mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, hukm va xulosa chiqarish, taqqoslash, tahlil qilishning turli usullarini qo'llashdek o'ziga xos xususiyatlari bilan maktabgacha yoshdagi bolalardan va o'smirlar tafakkuridan keskin farq qiladi. Bolalar tafakkurida yaqqol obrazlarga suyanib mulohaza yuritish, ya'ni yaqqol tafakkur mavhum tafakkurdan ma'lum darajada ustun turadi va ularning tafakkuri yosh xususiyatiga mutlaqo mosligini ko'rsatadi. Ta'lim jarayonida tafakkur operatsiyalarini, mustaqil fikrlashni o'rgatish kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni kamol toptirishning garovidir.

2-BOB. Kichik maktab yoshidagi bolalarda shaxslararo munosabatlar dinamikasi

2.1 Muloqatning psixologik tafsifi

yetkazishga, ya'ni gapirishga, fikrlarini ba'zan yozma tarzda bayon etishga tug'ma qobiliyatli dey o'zini tasavvur qiladi. Lekin aslida ana shu birovlarini tushunish va o'z fikrlarimiz, o'ylarimizni birovlariga yetkaza olish qobiliyati bizning insoniy munosabatlar tizimida ekanligimizni, har birimiz o'zimizga o'xshash inson jamiyatisiz mavjud bo'la olmasligimizni bildiradi.

Muloqotning turi va shakllari turlichadir. Masalan, bu faoliyat bevosita "yuzma-yuz" bo'lishi u yoki bu texnik vositalar (telefon, telegraf va boshqalar) orqali amalga oshiriladigan; biror professional faoliyat jarayonidagi amaliy yoki do'stona bo'lishi; sub'ekt-sub'ekt tipli (dialogik, sheriklik) yoki sub'ekt-ob'ektlilik (monologik) bo'lishi mumkinligini professor V.Karimova ta'kidlaydi.

Insoniy munosabatlar o'zaro shunday ta'sir jarayonlariki, unda shaxslararo munosabatlar shakllanadi va namoyon bo'ladi. Bunday jarayon dastlab kishilar o'rtasida ro'y beradigan fikrlar, his-kechinmalar, tashvishu-quvonchlar almashinuvini nazarda tutadi. Kishilar muloqotda bo'lgani sari ular o'rtasida umumiylik, o'xshashlik va o'yg'unlik kabi sifatlar paydo bo'ladiki, ular bir-birlarini bir qarashda tushunadigan yoki "yarimta jumladan" ham fikr ayon bo'ladigan bo'lib qoladi, ayrim hollarda esa ana shunday muloqotning tig'izligi teskari reaksiyalarni-bir-biridan charchash, gapiradigan gapning qolmasligi kabi vaziyatni keltirib chiqaradi. Masalan, oila muhiti va undagi munosabatlar ana shunday tig'iz munosabatlarga kiradi. Faqat bunday tig'izlik oilaning barcha a'zolari o'rtasida emas, uning ayrim a'zolari o'rtasida bo'lishi mumkin.(ota-ona, qaynona-kelin).

O'zaro munosabatlarga kirishayotgan tomonlar munosabatdan ko'zlaydigan asosiy maqsadlari- o'zaro til topishish, bir-birini tushunishdir. Har qanday faoliyatdan zerikish, charchash mumkin, faqat kishi muloqotdan, ayniqsa uning norasmiy, samimiy, bevosita shaklidan charchamaydi, yaxshi suhbatdoshlar doimo ma'naviy jihatdan rag'batlantiriladilar. XXI asr bo'sag'asida kishining eng tabiiy bo'lgan muloqotga bo'lgan ehtiyoji, uning sirlaridan habardor bo'lish va o'zgalarga samarali ta'sir eta olishga bo'lgan intilishi yanada oshdi va buning bir qator sabablari bor.

Birinchidan, axborotlarni ko'pligi aynan inson manfaatiga aloqador ma'lumotlarni saralash, u bilan to'g'ri munosabatda bo'lishni taqozo qiladi. Axborot XXI asrda eng nodir kapitalga aylanadi va bu o'z navbatida insonlarga zarur axborotlar o'zatilishi tezligi va tempini o'zgartiradi.

Ikkinchidan, turli kasb-faoliyat sohasida ishlayotgan kishilar guruhining ko'payishi, ular

o'rtasida munosabatlar va aloqaning dolzarbligi axborotlar tig'iz sharoitda oddiygina muloqotni emas, balki professional, bilimdonlik asosidagi muloqotni talab qiladi.

Uchinchidan, oxirgi paytlarda shunday kasb-xunarlar soni ortdiki, ular sotsionomik guruh kasblar deb atalib, ularda "odam-odam" dialogi faoliyatning samarasini belgilaydi.

Muloqot shaxslararo munosabatlarning shunday ko'rinishidirki, uning yordamida odamlar bir-birlari bilan o'zaro ruhiy jihatdan aloqaga kirishadilar, o'zaro axborot almashadilar, bir-birlariga ta'sir o'tkazadilar, bir-birlarini his qiladilar, bir-birlarini tushunadilar.

Shuning uchun muloqot ijtimoiy psixologik hodisa sifatida ijtimoiy turmushning barcha sohalarida ishtiroq etib, hamqorlik faoliyatining moddiy, ma'naviy, madaniy, emotsional, motivatsion qirralarining ehtiyoji sifatida vujudga keladi. Insonda yuzaga keladigan har xil ehtiyojlarni maqsadga muvofiq ravishda qondirish muloqot maromiga bog'liq bo'lib. shaxslararo munosabat, barkamol avlod, komil inson g'oyalarini anglatadi. Muloqot muvaffaqiyatining negizi shaxsning ruhiy dunyosi, ehtiyojlari motivatsiyasi, harakter hislati, individual-tipologik xususiyati, qobiliyati, e'tiqodi kabi insonning fazilatlarini, sifatlarini namoyon bo'lishi, rivojlanishi hisoblanadi. Muloqot jarayonida muloqotdoshlarning tasavvurlari, qiziqishlari, his-tuyg'ulari, ko'nikmalari, voqelik natijasini oldindan sezish, payqash, ta'sir o'tkazish uslubi tarkib topishi mumkin. Muloqot tashqi ta'sirlar, namunalar asosida o'zini-o'zi tuzatish, qayta tarbiyalash, shaxsiy imkoniyatini ruyobga chiqarish uchun puxta zamin hozirlaydi, komillik sari yetaklaydi.

Barkamol insonlarning muomala maromi, mulohaza yuritish uslubi, munosabatga kirishish o'quvchanligi, vaziyatdan chiqish salohiyati ham, boshqa odamlar tomonidan taqlid qilinadi va hayot tajribasida unga rioya etib yashaydi. Odamlar o'rtasidagi shaxslararo munosabat jarayonida g'ayritabiiy ijtimoiy holat yoki hodisaga ongli tayanish - o'zini - o'zi mukammallashtirish, o'zini - o'zi ruyobga chiqarish, o'zini-o'zi boshqarish, o'zini - o'zi baholash, o'ziga - o'zi buyruq berish shaxsning ruhiy dunyosida muhim kamolot bosqichidir. Shuning uchun ichki va tashqi taqlidning tushunish hamda ularni bosqichma-bosqich egallab borish - bo'lg'usi mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi hamda barkamol shaxs sifatida shakllanishining garovidir.

Muloqotga kirisha olmaslikning asosiy sababi - bu o'zini - o'zi ortiqcha yoki past baholash tufayli o'ziga va uni qurshab turgan odamlarga noto'g'ri munosabatdir. Buning oldini olish imkoniyatlari mavjud bo'lib, asosan quyidagilarga ahamiyat berish ijobiy samaralar sari yetaklaydi:

1) hamqorlik faoliyatida, muloqotlar tizimi orqali muloqot jarayonining barcha a'zolari o'rtasida insonparvarlik munosabatlarini tashkil qilish, emotsional muhitni taqqoslash

imkoniyatini yuzaga keltirish.

2) muloqotda ichki munosabatlar tizimida har bir a'zoning qulay pozitsiyasini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish.

3) insonning muloqot xususiyatlari, maromi, usullari, shakllari to'g'risidagi axborotni egallashga oid maxsus mashg'ulotlarni uyushtirish.

4) shaxslararo munosabatlar va muloqot usullariga mo'ljallangan ishbilarmonlik o'yinlari, psixodrama, trening tizimini yaratish.

L. S. Vigotskiy, A. N. Leontev, A.R. Luriya, D.B.Elkonin,

A. V. Zaporozets, M. I. Lisina tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, bolaning dastlabki ijtimoiy ehtiyojlaridan biri - bu muloqotga nisbatan ehtiyojdir. A.V.Zaporozets va M. I. Lisinalar tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, bolalarning kattalar bilan muloqotga kirishish ehtiyoji 7 yoshgacha bir nechta bosqichlar tarzida rivojlanib boradi:

1) e'tibor va hayrixohlikka ehtiyoj paydo bo'ladi;

2) kattalar bilan hamqorlik qilish ehtiyoji tug'iladi;

3) avvalgi barcha ehtiyojlarga kattalar tomonidan hurmat qilish ehtiyoji tug'iladi;

4) maktabgacha tarbiya yoshidagi bolada atrofdagilar bilan o'zaro bir-birini tushunish ehtiyoji vujudga keladi.

Xullas, inson o'zini idora qilish, turli vaziyatlarda o'zini tutish fazilatlari o'zlashtirilayotgan davrda ba'zi bir qoidalarga rioya qilsa, hamqorlik fazilatida ma'lum yutuqlarga erishadi:

1. Ijtimoiy hodisalarning tashqi voqe bo'lishi nafaqat ichki ruhiy holat va uning mazmunini aks ettiribgina qolmaydi, balki ikki tomonlama aloqa tufayli mazkur jarayon yuzaga keladi.

2. Ixtiyoriy, faol diqqatning tashqi ob'ektlarga yo'naltirilganligi va to'planganligi turli omillar ta'siri tufayli samaradorlik darajasini pasaytiradi, asabiy holat ishchanlikni kamaytirib muloqot maromiga putur yetkazadi.

3. Inson o'zini erkin, ozod, bemalol his etish hislatini o'zlashtirish uchun jismoniy keskinlik, asabiy taranglik, aqliy zo'riqish orqali ko'zlangan maqsadiga yetishi mumkin (E.G'oziev. Muomala psixologiyasi. T.2001 23-bet).

Yuqoridagi qoidalarga barcha talabalar rioya qilib, gavdalarini to'g'ri tutish, muammoli vaziyatlarga va muloqot maqsadiga, maromiga mutanosib tushadigan hodisalar, holatlar, sharoitlar, muayyan muhit, mazmunli harakatlar, imo - ishoralar, mimika, pantomimika ustida ishtiyoq bilan shug'ullansalar, yengil tabassum, iliq, miyig'ida kulish, chiroyli yurish kabi mashqlarni amalga oshirsalar, noverbal nutq yordami bilan shaxslararo munosabatni to'g'ri yo'lga qo'yish imkoniyatiga erishadilar. Atrofdagilarda yoqimli taassurot qoldirish, ularda mehr - muhabbat tuyg'usini o'yg'otish muloqotdosh tanlashga imkon tug'diradi. Jismoniy va ma'naviy jihatdan erkinlikka erishish o'ziga ishonch tuyg'usini yuzaga keltirsa, mustaqillik muloqotda teng huquqli sherik bo'lishga shart-sharoit yaratadi.

2.2. Ijtimoiy munosabatlar va muomalani o'rganish mezonlari

Ijtimoiy munosabatlarni qanday yo'l bilan, qanday mezonlarga asoslanib o'rganish masalasi xam katta ahamiyatga ega. Bunda asosan 3 ta mezon nazarda tutiladi:

- sotssiommetrik mezon;
- kommunikativ mezon;
- gnotsik (bilish) mezonlar.

Shunga mos xolda asosan ikki toifali uslublar qo'llaniladi:

- bevosita munosabatlarni baxolash usullari;
- munosabatlarga ta'sir ko'rsatuvchi odamning xususiyatlarini baxolash metodlari.

Birinchi toifali uslublardan birini yuqorida ko'rib chiqdik, bu – sosiometrik uslub. Bu usulning o'ziga xosligi, tanlov mezonlari va savollarga qo'yiladigan barcha talablar to'g'risida ko'plab adabiyotlarda batafsil yozilgan. Shuning uchun uning imkoniyatlariga katta baxo bergan tarzda unga aloxida to'xtamaymiz. Aloxida ta'kidlaymizki, oxirgi yillarda bu metod nafaqat konkret jamoada xar bir shaxsning ijtimoiy mavqeini aniqlash uchun emas, balki raxbarlikka zaxira shakllantirishda xam, iqtidorli talabalar yoki o'quvchilar to'g'risida birlamchi ma'lumot to'plashda xam, "Kamolot" yetakchilari zaxirasini aniqlashda xam ishlatilishi mumkin. Demak, sosiometrik mezon shunday savolni nazarda tutadiki, uning yordamida jamoadagi odamlar o'rtasidagi munosabatlar aniqlanadi. Kommunikativ mezon esa sosiometrik tanlov sharoitlarida kimni, nima uchun tanlayotganligi to'g'risida aniq tasavvur xosil bo'lishini nazarda tutadi. Beriladigan savollar mazmuniga ko'ra kuchli yoki kuchsiz xarakterli bo'lishi mumkin. Quyida biz ana shunday kuchli-kuchsiz savollarga misol keltiramiz:

1) Kuchsiz: "Kim bilan bo'sh vaqtingizni o'tkazishni xoxlardingiz?"

Kuchli: "Ish orasidagi tanaffuslarni kim bilan birga o'tkazishni xoxlaysiz?"

2) Kuchsiz: "Kim bilan birga ishlashni xoxlaysiz?"

Kuchli: "Yangi chiqqan Farmoyishda belgilangan vazifalarni bajarishga kimni sherik qilishni itsaysiz?"

3) Kuchsiz: "Bo'lim boshlig'ilikka kimni tanlagan bo'lardingiz?"

Kuchli: "Yaqinda bo'limingizga yangi, manfaatli loyixani bajarish topshirigi beriladi. Ushbu loyixaga boshliqlik qilishga eng loyiq shaxsni belgilang".

Demak, tanlov amalga oshiriladigan sharoitdan kelib chiqqan tarzda rasmiy va norasmiy savollar bo'lishi mumkin. Rasmiy savollar odamlarni ish-faoliyat maqsadlaridan kelib chiqqan tarzda bir-birlariga munosabatlarini izxor etishni nazarda tutsa, norasmiy savollar odamlar bo'sh vaqtlariga aloqador vaziyatlardagi munosabatlarini aniqlashga imkon beradi.

Uchinchi mezon – muloqatga kirishuvchi shaxslarning bevosita shaxsiy xususiyatlarini bilishni asos qilib olgan tarzda munosabatlarni qurishni nazarda tutadi. Ma'lumki, psixologiyada verbal-lingvitsik, paralingvitsik xamda noverbal muloqat vositalari farqlanadi. Odamning gapirayotgan gapining mazsuniga qarab, suxbatdosh uning niyat, maslaklarini, munosabatlarini bila olishi masalaning bir tomoni. To'g'ri aynan shu yo'l suxbatdoshlarning ijtimoiy muloqoti xarakterini ma'lum ma'noda belgilaydi. Lekin gnotsik nuqtai nazardan muloqot jarayonida suxbatdoshning suzlari mazmunidan tashqari ishlatadigan belgilari katta informasion xususiyatga ega. Muloqotning paralingvitsik vositalari deganda, nutqning atrofidagi belgilar nazarda tutiladi. Bu nutqdagi intonasiya, gapirish tezligi, baladligi va tovushlarga xos xususiyatlardir. Noverbal vositalar esa so'zsiz va umuman nutqqa aloqasi bo'lmagan, lekin xar qanday muomala jarayonida bo'ladigan belgilar nazarda tutiladi. Bu – odamning qiliqlari, yuzidagi belgilari, pantomimika, suxbatdoshlarning o'zaro fazoviy joylashishlari, uchrashuv vaqti-soati, kulgi yoki yig'i kabilardir.

2.3.Shaxslararo munosabatlarni o'rganish metodlari

Ijtimoiy munosabatlar aslida odamning siyosiy munosabatlaridan tortib, uning shaxslararo munosabatlari xususiyatlarini o'z ichiga olgan murakkab jarayondir. Bu jarayonni turli nazariy oqim vakillari o'zlaricha o'rganishlari ma'lum. Masalan, interksionizm vakillari uni shaxslararo o'zaro ta'sirning turlicha namoyon bo'lishi shaklida tushunsalar, ijtimoiy almashinuv nazariyasi tarafdorlari – odamlarning bir-birlariga nisbatan talablari, kutishlari va manfaatdorliklarining o'zaro almashinuvi jarayoni sifatida tasavvur qiladilar. Shunga o'xshash xozirda turli tuman yondoshuvlar mavjud, lekin ularning barchasini birlashtiradigan yagona g'oya – bu odamlar o'rtasida sodir bo'ladigan o'zaro ta'sir va aloqa jarayonlarining mexanizmlarini aniqlash xamda ushbu jarayonni boshqarish usullarini ishlab chiqishdir.

Yana bir muxim fikr shunday iboratki, xar qanday ijtimoiy munosabatlar ko'pqirrali, bo'lib, xar birining o'ziga xos kechish xususiyatlari va shart-sharoitlari, qonuniyatlari bo'ladi. Agar raxbar o'z jamoasidagi insoniy munosabatlar asosan nimaga asosan kechishini bilsa, uni boshqarish oson. Shunga ko'ra ta'kidlash mumkinki, agar jamoada xaqiqiy smarali, ijodiy mexnatga safarbar etuvchi iqlim tashkil qilinmagan bo'lsa, odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va muomala xam asosan xissiyotlarga, odamlarning bir-birlarini xurmat qilishlari, yoqtirish-yoqtirmasliklariga asoslanib qoladi. Odamlar ishga otlanar ekanlar, avvalo kimlarni ko'rishlari, kimlar bilan tushlikka chiqishlari yoki bir sol atrofida o'tirishlari, vaqtzni o'tkazish uchun qaysi krossvord yoki gazetani o'qishini g'amini yeb keladi. Demak, bunday jamoada ish qoniqarsiz tashkil etilgan bo'lib, odamlar o'rtasidagi munosabatlar sof emosional-xissiy muomalaga tayanadi. Ana shunday yerlarda guruxbozlik, jamoaning kichik-kichik guruxchalarga bo'linib ketishi, buning oqibatida bir nechta norasmiy liderlarning paydo bo'lib, xar biri o'z "ixlosmandlarini" o'ziga xos manfaatlar bilan atrofida birlashtirayotganligini ko'rish mumkin.

Boshqa jamoada esa ish butunlay boshqacha tashkil etilgan bo'lishi mumkin. Oqil va tashabbuskor raxbar qo'l otsida ishlayotganlar jamoani bir yaxlitlik deb tasavvur qilib, ishga ketayotganda, eng avvalo kecha oxiriga yetkazolmagan ishlari bor-yo'qligini, bugun qanday ishni va kim bilan, kim orqali bitkazishini, ishni yanada yaxshilash uchun bugun yana qanday choralar ko'ra olishi xaqida o'ylaydi. Jamoaning xar bir a'zosi eng avvalo ishni o'ylab uyidan chiqadi. Demak, bunday jamoadagi o'zaro shaxslararo munosabatlar xam ishchanlikka asoslannadi va jamoaning eng tashabbuskor, fidoiy, aqlli a'zosi kim bo'lishidan, yoshi yoki jinsidan qat'iy nazar, norasmiy obro'ga ega bo'lishi va liderlikka da'vogar bo'lishi mumkin. Raxbar esa ana shunday tashabbuskor, mexnatkash, jonkuyar odamlar bilan doimo xisoblashadi va ular fikriga quloq soladi. Bundan raxbarning maxorati uning ana shu jamoadagi norasmiy va rasmiy liderlar bilan xamkorlikda ishlash olish san'ati bilan baxolanadi.

Bundan tashqari, har bir konkret vaziyatda va jamoada odamlar o'rtasidagi munosabatlarning turli shakllari namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, ular o'rtasidagi o'zaro munosabat faqat rasmiy aloqalar bilan cheklanmay, bir vaqtning o'zida norasmiy, shaxsiy munosabatlar bilan uyg'unlashadi. Agar umuman jamiyat miqyosida oladigan bo'lsak, ijtimoiy munosabatlarning siyosiy, iqtisodiy, xuquqiy, mafkuraviy, diniy, ma'naviy soxalarda ro'y beradigan shakllarini xam farqlash mumkin.

Muloqotdoshlikni aniqlovchi test:

1. Siz gapirishdan ko'ra eshitishni yaxshi ko'rasizmi?
2. Siz o'zingiz tanimagan kishi bilan suhbatlashish uchun har xil mavzu topa olasizmi?
3. Siz doimo o'z suhbatdoshingizni diqqat-e'tibor bilan, o'ta ziyrqlik bilan tinglaysizmi?
4. Siz o'zga kishilarga maslahatlar berishni yoqtirasizmi?
5. Suhbat mavzusi siz uchun qiziqarli bo'lmasa suhbatdoshingizga buni bildirib olasizmi?
6. Suhbatdoshingiz sizni tinglamayotganini sezsangiz jahlingiz chiqadimi?
7. Sizni har qanday masala yuzasidan o'z shaxsiy fikringiz bormi?
8. Suhbat mavzusi siz uchun notanish bo'lsa suhbatni davom ettirasizmi?
9. Siz hammaning nigohida, diqqat markazida bo'lishni yoqtirasizmi?
10. Siz yetarli darajada bilimga ega bo'lgan kamida uchta predmet asosini egallaganmisiz?
11. O'zingizni dilkash deb hisoblaysizmi?

Testning kaliti: "Ha"-1, 2, 3, 6, 7, 8, 9, 10, 11;

"Yo'q"-4, 5. Har bir javob 1 ball. 1-3 : Siz bilan muloqotda bo'lish har doim ham yoqimli emas, hatto ba'zida bu jarayon juda og'ir kechadi. 4-9 ball: Siz boshqalar uchun yoqimli suhbatdoshsiz, ammo kayfiyatingizga ko'p narsa bog'liq. 10-11 b: Siz muloqot jarayonida juda yoqimli suhbatdoshsiz, ammo uni juda oshirib yubormang.

**3-BOB. Kichik maktab yoshidagi bolalarda shaxslararo munosabatlar dinamikasi
psixologik diagnostikasi va korreksiyasi**

3.1. Kichik maktab yoshidagi bolalarda shaxslararo munosabatlari diagnostikasi

Siz bilan muloqot qilish xuzurbaxshmi?

1. Siz gapirishdan ko‘ra tinglashni yoqtirasizmi?

a) ha; b) yo‘q.

2. Siz notanish odam bilan ham so‘zlashishga sabab topa olasizmi?

a) ha; b) yo‘q.

3. Siz hamisha suhbatdoshingizni diqqat bilan tinglaysizmi?

a) ha; b) yo‘q.

4. Siz maslahat berishga qiziqasizmi?

a) ha; b) yo‘q.

5. Suhbat didingizga mos tushmasa uni suhbatdoshingizga sezdirasizmi?

a) ha; b) yo‘q.

6. So‘zlaringizga quloq solmasalar jahlingiz chiqadimi?

a) ha; b) yo‘q.

7. Har qanday masala yuzasidan shaxsiy qarashingiz bormi?

a) ha; b) yo‘q.

8. Suhbat mavzusi Sizga notanish bo‘lsa, uni davom ettirishni xohlaysizmi?

a) ha; b) yo‘q.

9. O‘zingizga hammani mahliyo qilishni ep ko‘rasizmi?

a) ha; b) yo‘q.

10. Asosiy fanlar bo‘yicha mukammal bilimga egamisiz?

a) ha; b) yo‘q.

11. Siz suhandonmisiz?

a) ha; b) yo‘q.

Test kaliti: “ha”: 1, 2, 3, 6, 7, 8, 9, 10, 11; “Yo‘q-4, 5.

Har bir mos tushgan javobga 1 ball qo‘yiladi.

Muloqotning ho‘zurbaxshli darajasi baholanish qiymati bilan aniqlanadi:

1-3 ballgacha: Siz bilan muloqot qilish ho‘zurbaxsh emas, ba’zan hatto hijolatda qolasan kishi;

4-9 ballgacha: Siz hamisha yoqimli va ziyrak suhbatdoshsiz, lekin kayfiyatingiz buzilganda hayolparishonsiz;

10-11 ballgacha: Siz juda ho‘zurbaxsh muloqotdoshsiz, ammo kalaka qila ko‘rmang.

So‘z boyligini faollik darajasini aniqlash metodikasi.

Talabalarga 300 ta so‘zdan kam bo‘lmagan erkin mavzuda insho yozish topshiriladi. Birorta rasm yoki kinofilmga Taqriz yozishlari ham mumkin. quyidagicha tahlil qilinadi:

— nutq namunasidagi so‘zlarning umumiy soni;

— matnda faqat bir martagina qo‘llanilgan so‘zlarning soni;

— nutq namunasining birinchi yuzligi, ikkinchi yuzligi va uchinchi yuzligida uchragan so‘zlar soni. Natijalarni quyidagi jadvalda aks ettirish mumkin:

9- Jadval

Sinaluvchining ismi sharifi	Nutq namunasi turi va soni	So‘zlar ning umumiy soni	Turli so‘zlarning soni	Faqat bir marta qo‘llanilgan so‘zlar soni	Sinaluvchining tutgan o‘rni

Muomalaning turli vositalarini diagnostika qilish

Agar muloqot jarayonini yaxlit bir faoliyat sifatida undagi asosiy maqsad – muomalaga kirishgan shaxslarning umumiy muammolarini yechish bo‘ladigan bo‘lsa, muloqotning tashabbuskori bo‘lgan shaxsning ta’siri qanchalik adresatga – ta’sir yo‘naltirilgan kimsaga yetib borishi katta amaliy ahamiyatga ega. Shuning uchun xam olimlar muloqotning samaradorligi ko‘proq qaysi vositalarga bog‘liqligiga qiziqadilar. Amerikalik olim Megrabyanning ma’lumotlariga ko‘ra, birinchi uchrashuvda biz boshqalardan kelayotgan noverbal signallarga 55%ga ishonamiz, ulardan ta’sirlanamiz; 38% – paralingvitsik va 7%gina nutqning bevosita mazmuniga ishonamiz. Shuning uchun xam obrazli tarzda “Kiyimga qarab kutib olinadi, aqlga qarab kuzatiladi” deyiladi. Keyingi uchrashuvlarda bu mutunosiblik, tabiiy, o‘zgaradi.

Albatta, paralingvitsik xamda noverbal vositalarning muloqatdagi o‘rni va ulushi masalasi suxbatdoshlarning yosh, jins, kasb, xattoki, milliy xususiyatlariga bog‘liq. Masalan, boshqa bir amerikalik olim Argayl turli millatlar vakillari muomalasida qiliqlar va qo‘l xarakatlarining kuchi va takrorlanishini o‘rgangan. Ma’lum bo‘lishicha, 1 soat mobaynida finlar bir marta qiliq qilarkan, italiyaliklar – 80 marotaba, fransuzlar – 20 va meksikaliklar 180 marta. Demak, xar bir xalq vakilining asriy udumlari, rasm-rusmlari, odatlari va emosiionalligiga qarab qiliq va xarakatlar ma’lum o‘rin egallar va bu narsa o‘z navbatida muloqotni kuchaytiradi, uni boyitadi.

Muloqot jarayonida suxbatdoshlarning fazoviy joylashishlari xamda vaqt mezonlari amaliy ahamiyatga ega. Masalan, yuzma-yuz turib gaplashish, telefon orqali yoki qichqirib gapirishdan farq qiladi. Yoki muloqotning vaqt mezonlari ayniqsa diplomatik uchrashuvga o‘z vaqtida kelish va unda odob-axloqqa qat’iy rioya qilish yoki aksincha, sherikni xurmat qilmaslik, uchrashuvga kechikib kelish, uzoqdan turib gaplashish, iyaklarni tepaga qaratib, kibor bilan gapni boshlash, muzokaralarning xar bir sekundi o‘ziga xos ma’no va mazmun kasb etadi va mos tarzda sharxlanadi.

Yuqorida ta’kidlangan xolatlar psixologiyadagi maxsus bo‘lim – proksemika tomonidan o‘rganiladi. Bu yo‘nalishning asoschisi amerikalik E.Xoll bo‘lib, uning o‘zi proksemikani “fazoviy psixologiya” deb atagan. Masalan, u amerikaliklarga xos bo‘lgan suxbatdoshning sherigiga nisbatan fazoviy joylashuvi xususiyatlarini aniqlab, muloqotning turli sharoiti va shakliga qarab, fazoviy yaqinlashuvning o‘rtacha qiymatini aniqlagan:

- intim (yaqin) masofa – 0-45 sm;
- personal (shaxsiy) masofa – 45-120 sm;
- ijtimoiy masofa – 120-400 sm;
- ommaviy masofa – 400-750 sm.

Xar bir masofa o'ziga xos muloqot vaziyatlariga mos. Vaqt va fazo bilan bog'liq aloqalarning o'ziga xos majmui xronotoplar deb ataladi. Amaliyotda "kasalxona palatasi xronotopi", "vagon yo'lovchilari xronotopi" va boshqalar aniqlangan.

Muloqotda suxbatdoshlarning ko'z qarashlari – vizual kontaktlari xam katta ahamiyatga ega. Vizual kontakt – bu qarashlar soni, ularning uzoqligi, qarashlardagi satika va dinamik almashinuvlar, ko'z olibqochishlar va boshqalardir. Argayl shulardan kelib chiqib, "yaqinlik (intimlik) formulasi"ni ishlab chiqqan va bunda intimlilik darajasi suxbatdoshlarning o'rtasidagi masofaga va ko'z qarashlarga bog'liqligini isbotlagan. Chunki ko'z qarashlar suxbatdoshning muloqotga tayyorligi, uni davom ettirish kerak yoki kerak emasligi xaqida ma'lumot berib, suxbatning yo'nalishini belgilaydi.

Yana bir muxim ta'sirchan belgilar majmuini o'ziga mujassam etgan soxa – bu yuzimizdir. Ilmiy adabiyotda yuz qiyofasining 2000 dan ziyod qirralari aniqlangan. Ularni ma'lum tartibda tizimga solish uchun P. Ekman "FATS" – Facial Affect Scoring Technique deb nomlangan metodikani xam taklif etgan. Unga ko'ra yuz uch zonaga bo'linadi: I – ko'z va peshona, II – burun va burun oldi, III – og'iz va iyak zonasi. Ularning xar birida turlicha bo'ladigan 6 xil emosional xolatlar ajratiladi – quvonch, jaxl, xayrat, qo'rquv, g'am va nafrat.

Jon Chetsara o'zining "Delovoy etiket" nomli kitobida (M.,1997) muloqot jarayonida namoyon bo'ladigan va aniq ma'no va moxiyat kasb etadigan noverbal qiliqlarga tasnif bergan.

Agar suxbatdoshingiz barmoqlari bilan solni tinmay chertayotgan bo'lsa, demak, u betoqat, yoki unga siz bilan suxbatlashish zerikarli, shuning uchun u asabiylashmoqda.

Agar suxbatdosh yelkalarini qisayotgan bo'lsa, demak, uni siz bilan bo'lgan suxbat befarq qoldirdi, unga baribir.

Agar u qo'l barmoqlarini qisayotgan bo'lsa, demak, u nimadandir juda xavotir, o'zini ximoyasiz xis qilmoqda.

Suxbatdoshning qo'llarini musht qilib turishi undagi vajoxat belgisi, lekin u bu xolatni, badjaxllikni nazorat qilmoqchi.

Agar suxbatdoshning qo'llari bexol bo'lib, kaftlari yuqoriga qaratilgan tarzda oldinga intilgan bo'lsa, demak, u nimadandir taajjubda, tashvishda, qiyinchilikda.

Agar sherigingiz kotsyumining tugmalarini yechsa, demak, u faollikga xozirlangan bo'ladi.

Qo'llar ko'krakda bog'langan bo'lsa, bu uning chaqirigi, nimanidir muxokama qilishga tayyorligi ramzi.

Agar odam tez yurib borayotib, iyaklarini ko'targan xolda qo'llarini erkin tashlab qo'ygan bo'lsa, demak, u o'ziga ishonadi, u – qat'iyatli.

Odam ketayotganda, ikki quli cho'ntakda, boshi egik bo'lsa, demak uning ruxi tushgan, xafa, depressiya xolatida bo'ladi. Qo'l kaftlarining chakkaga qo'yilganligi uning nimagadir juda xayratlanib, qiziqayotganligining belgisidir. Agar suxbatdosh qo'l mushti bilan o'zining iyagiga urayotgan bo'lsa, u nimanidir aniqlamoqchi, tashvishda bo'ladi. Agar odam burniga tegib, yoki uni ishqalayotgan bo'lsa, demak, u nimanidir utsida o'ylamoqda. Agar suxbatdosh qo'lini beliga tirab olgan bo'lsa, demak, u o'zining utsunligini bildirib, ochiq gaplashib olishga chaqirayotgan bo'ladi. Agar qo'llarining uchlarini birlashtirib "uycha" shaklini eslatayotgan bo'lsa, bu – uning nimanidir o'ylayotganligi yoki nimagadir qiziqayotganligi ramzidir. Agar siz gapirayotganingizda suxbatdosh boshini yonbosh qilib tinglasa, demak, u jiddiy emas, xazilga moyil. Agar suxbatdosh ko'z oynagini burun utsiga tushirib, tepasidan qarasa, bu uning sizdan ko'proq ma'lumotlarni kutayotganligi belgisidir. Odam u yoqdan bu yoqqa borib kelayotgan bo'lsa, demak, u nimadandir tashvishda, asabiylashmoqda. Agar odam qansharini bosayotgan bo'lsa, demak, u charchagan (agar ko'zoynagi qismayotgan bo'lsa). Agar odam sulning qirg'og'iga o'tirib olgan bo'lsa, bu yo sabrsizlik bilan kutayotganligi, yoki nimagadir qiziqish bildirayotganligi ramzidir. Odam oyoqlarini bir-birining utsiga qo'yib olib, oyog'ini yengil tebratayotgan bo'lsa, demak, u zerikmoqda. Agar odam ko'rsatgich barmog'i bilan o'qtilib, o'ziga xos tarzda xarakat qilayotgan bo'lsa, u o'z qarashini ta'kidlamog'chi. Agar odam oyoqlarini xontaxta yoki sol utsida utsma-uts qo'yib o'tirgan bo'lsa, u boshqalarda o'ziga xos taassurot qoldirmog'chi, o'zining tobe emasligini ko'rsatmog'chi. Agar odam o'zini orqaga tashlab, qo'llarini bir-biriga bog'lab, bo'ynida ushlagan bo'lsa, demak, u dam olmog'chi, va boshqalarda taassurot qoldirmog'chi. Gapirayotgan paytida og'zini berkitishi, uning "tushunishingiz shart emas" degani. Odamning bir qo'lini orqaga qilib, boshqa qo'li bilan tirsagini ushlab turishi, uning tajangligi va birov bilan gaplashish xoxishi yo'qligini bildiradi". Shunday qilib, biz odatiy, tabiiy deb idrok qiladigan faoliyatimiz bo'lgan – muloqotda xam ko'plab sirlar va o'ziga xos nozik tomonlar borki, ularning barchasi bizdan muloqotdagi bilimdonlikni va o'zgalarga va o'zimizga e'tiborliroq bo'lishimizni talab qiladi.

Ijtimoiy-psixologik bilimdonlik – muomala madaniyati va kommunikativ maxorat ekanligi. Ko'pincha kundalik muloqotda biz "bilimdonlik" tushunchasini tez-tez ishlatamiz. Ayniqsa, "professional bilimdonlik" tushunchasi ko'proq diqqatni tortadi. Lekin, ayniqsa, insonlar bilan ishlash borasida "kommunikativ bilimdonlik" tushunchasi xam ishlatiladi. Bu

aslida o'zgalalar bilan til topisha bilish, o'z nutqini ravon va bir tekisda tuzish orqali fikrlarini boshqalarga yetkaza olish kabi muxim xususiyatlar bilan bog'lanadi. Psixologiyada, birinchi navbatda, boshqaruv psixologiyasida oxirgi paytlarda "ijtimoiy-psixologik bilimdonlik" tushunchasi ajratilmoqdaki, moxiyatan u – kommunikativ bilimdonlikdan kengroq va ko'pqamrovlidir.

Ijtimoiy-psixologik bilimdonlik – bu shaxsning ijtimoiy-psixologik xodisalar xamda muomala qonuniyatlari, o'zgalarni bilish, to'g'ri idrok qilish, dilidagini anglash va shu asosda o'zaro xamkorlikni tashkil qilish borasidagi savodxonligidir. "Amaliy ijtimoiy psixologiya" (1998) kitobining mualliflari ijtimoiy-psixologik bilimdonlikning 3 asosiy tarkibiy qismlarini ajratadi:

- kommunikativ bilimdonlik;
- perseptiv bilimdonlik;
- interaktiv bilimdonlik.

Agar diqqat bilan bu tizimga qaralsa, u G.M.Andreevaning uch tizimli muloqot to'g'risidagi nazariy qarashlaridan kelib chiqqanligiga guvox bo'lishimiz mumkin (kommunikativ, perseptiv va interaktiv). (Andreeva G.M. Sosialnaya psixologiya. M., 2000). Xar qalay, bunday yondoshuv o'sha ko'pqirrali muloqot jarayonining asosiy soxalarini qamrab olganligi bilan xarakterlanadi. Ijtimoiy-psixologik bilimdonlikni o'rganish metodlari. Autopsixologik bilimdonlik shaxsning, birinchi navbatda, raxbarning ijtimoiy-psixologik bilimdonligini aniqlash uchun turli metodlar ishlatiladi. Bular o'sha biz bilgan ko'plab muloqatga kirishuvchanlik sifatlarini aniqlash metodlaridir. Lekin ularning ko'pchiligi nazariy nuqtai nazardan maqsadga muvofiq emas. Barcha metodik usullar ichida aynan shaxsning o'zgalalar bilan tez va aniq ishchanlik va shaxsiy muloqotni o'rnata olishi, va tariqa boshqalarga ta'sir ko'rsata olish malakasini aniqlovchi KOS-1 metodi tadqiqotchilarda ko'proq ishonch uyg'otmoqda. Metodning qulayligi shundaki, u ko'p vaqtni olmagan xolda (10-15 daqiqa) 40 ta savolga "xa" yoki "yo'q" deb javob berishni taqozo etadi.

Bevosita kommunikativ bilimdonlikni aniqlash uchun "Muloqotga kirishuvchanlik darajasi", "Muloqot", "Tinglashni bilasizmi?", "Fikrni bayon eta olish" kabi qator metodikalar qo'llaniladi. Muloqot jarayonida odam o'zini qanchalik nazorat qila olishi M. Snaydarning maxsus testi ishlatiladi. Ijtimoiy-psixologik bilimdonlik bevosita odam tomonidan o'zini o'zi bilish – autopsixologik bilimdonlik bilan xam bog'liq. Bu odamdagi shunday malakalarki, ular uni o'z sifatlarini diognostika qila olish – o'z-o'zini diagonotsika, o'z-o'zini tuzata olish (o'zini korreksiya), o'z-o'zini takomillashtira olish, o'ziga o'zi motivasiya bera olish, xar qanday ma'lumotdan samarali foydalana olish, psixolingvitsik bilimdonlikni nazarda tutadi.

Jamoadagi xar bir konkret odamning ijtimoiy mavqei asosan sosiometrik usulda o'rganib kelingan. Xozirgi vaqtga kelib, bu usulning yuzlab modifikasiyalari – shakllari mavjud. Lekin jamoadagi ma'naviy iqlimni, xar bir jamoa a'zosining unda tutgan o'rni va mavqeini aniqlashda sosiometriyaning qaysi shakli yoki ko'rinishidan foydalanmaylik, quyidagilarni albatta belgilab olish kerak bo'ladi: maqsad nima, savollar mazmuni, savollar uchun mezonni aniqlash, tanlovni ma'lum tarzda cheklash, so'rovni o'tkazish va natijalarni qayta ishlash. V.Grabal sosiometrik so'rovning o'ziga mos shaklini taklif etadi. Ma'lumki, sotsiometriyaning an'anaviy shaklida shaxs mavqei quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

SHAXSLARARO MUNOSABATLARNI O'RGANISH METODIKASI.

Riaxovskiy testi.

Xa-2, Ba'zan-1, Yo'q- 0

1. Sizni oddiy yoki ish bo'yicha uchrashuv kutayapti. Uni kutib bezovta bo'lasizmi?
2. Siz kasalingiz zo'rayib ketgunga qadar, vrachga borishni orqaga tashlaysizmi?
3. Sizga biror yerda doklad qilish topshirilsa, sizda norozilik hissi tug'iladimi?
4. Kim bilan bo'lsa ham ichki-kechinmalaringizni o'rtoqlashasizmi?
5. Ko'chada notanish odam sizga iltimos qilsa (soat yoki ko'chani so'rasa) g'ashingiz keladimi?
6. Siz otalar va bolalar degan muammoni bilasizmi? Shu muammoni mavjudligiga ishonasizmi?
7. Tanishingiz sizdan 100 so'm pulni 1 soat oldin olgan bo'lsa, uni eslatishga uyalasizmi?
8. Oshxonada sizga juda sifatsiz ovqat berdi. Siz tarelkani chetga surib qo'yaqolasizmi?
9. Siz notanish odam bilan yakkama-yakka qolib, siz u bilan suhbatni boshlamaysiz? Agar u boshlamasa sizga malol keldi. To'g'rimi shu?
10. Sizni har qanday uzoq navbat kutish joningizga tegadi, dahshatga soladi.
11. Siz navbatda turib zeriksangiz, o'z niyatingizdan voz kechasizmi?
12. Siz biror nizom vaziyatni hal qilishda komissiyada ishtirok etishdan qo'rqasizmi?
13. Sizda adabiyot, san'at asarlar to'g'risida baholash bo'yicha shaxsiy o'lchovingiz bor. O'zgalar fikrini qabul qilmasligingiz to'g'rimi?

14. Biror yerda siz yaxshi ko'rgan masala bo'yicha bir yerda noto'g'ri fikrni eshitib qoldingiz. Indamaslikni afzal ko'rasizmi?

15. Sizdan biror murakkablik masala yoki o'quv mavzusi bo'yicha yordam so'rasa, kapalagingiz uchadimi?

16. O'z fikringizni og'zakiga nisbatan, yozma ravishda jon deb, yozishni qabul qilasizi?

24-19 ball. Siz ma'lum darajada muloqotga yaxshi kirishasiz. Bahs-mulohazalarda ilmog'li gaplarni ko'p gapirasiz.

19-14 ball. Me'yorda, siz bilan gaplashadigan odam. Sho'x bo'lsa qizg'in suhbat bo'ladi. Sabrlisiz. To'plangan kompaniyalarni yoqtirmaysiz.

Kichik maktab yoshidagi bolalar tafakkurini o'rganish metodikasi

Mazkur metodika kichik maktab yoshidagi bolalarda tushunchalar, turli ob'ektlar o'rtasidagi sababiy bog'lanish, o'xshashlik haqidagi tasavvurlarning shakllanganligini o'rganish uchun xizmat qiladi. U 20 ta savoldan iborat. Psixolog bolaga har bir savolni o'qib beradi va bolaning javobini qayd etadi. Har bir savoldan so'ng qavs ichida to'g'ri javob keltirilgan.

Savollar.

1. Ot kattami yoki itmi? (ot)
2. Ertalab nonushta qilamiz, peshindachi? (tushlik)
3. Kunduzi yorug', kechasi-chi? (qorung'u)
4. Osmon havo rangda, o'tlar – chi? (yashil)
5. Gilos, nok, olma, olxo'ri – bular nima? (meva)
6. Nima uchun hali poezd o'tmasdan shlagbaum tushiriladi? (mashinalarni to'xtatib turish uchun)
7. Toshkent, Samarqand, Buxoro – bular nima? (shahar)
8. Soat necha bo'ldi? (bolaga soat ko'rsatiladi?)
9. Sigirning bolasi buzoq, itning bolasi kuchukcha, qo'yning bolasi-chi? (qo'zichoq)
10. It ko'proq tovuqqa o'xshaydimi yoki mushukkami? (mushukka)
11. Nima uchun avtomobillarda tormoz bor? (mashinani sekinlashtirish ma'nosidagi har qanday javob to'g'ri bo'ladi)

12. Bolg'a bilan bolta nimasi bilan bir-biriga o'xshaydi? (o'xshash vazifalarini bajaruvchi asboblarning mazmunidagi har qanday javob to'g'ri)
13. Olmaxon bilan mushuk nimasiga ko'ra o'xshaydi? (kamida ikkita o'xshash belgi sanab o'tilishi kerak)
14. Mix bilan vintning nima farqi bor? (mixning usti tekis, vint g'adir – budur, mix bolg'a bilan qoqiladi, vint burab kiritiladi)
15. Futbol, tenis, suzish – bular nima? (sport, fizkultura)
16. Qanday transport turlarini bilasan? (kamida ikkita har xil transport sanab o'tilishi kerak)
17. Qari odam yoshdan nima bilan farqlanadi? (kamida ikkita muhim farqli belgi sanab o'tilishi kerak)
18. Odamlar nima uchun sport bilan shug'ullanadi? (sog'lom bo'lish uchun, baquvvat bo'lish uchun, kuchli bo'lish uchun, g'alaba qozonish uchun, chempion bo'lish uchun)
19. Odamlar ishlamasa nima bo'lishi mumkin? (narsalar yarata olmaydilar, narsalar sotib olmaydilar, qiynalib yashaydilar kabi javoblar)
20. Odamni nima uchun qamab qo'yadilar? (yomon ish qilgani uchun mazmunidagi har qanday javob, boshqalarga zarar yetkazmasligi uchun degan javob to'g'ri).

Natijalarni qayta ishlash.

Agar bolaning javobi to'g'ri javobga mos kelsa, unga 0,5 ball, qisman to'g'ri kelsa 0,25 ball qo'yiladi. Javobni baholashdan avval bolaga savolni to'g'ri tushuntirilganligiga ishonch hosil qilish kerak. Zarurat tug'ilganda psixolog ayrim so'zlarning ma'nosini izohlab berishi lozim (masalan, shlagbaum so'zi izoh talab qilish mumkin).

Natijalarni baholash.

10 ball – juda yuqori darajada

8 – 9 ball – yuqori daraja

4 – 7 ball – o'rta daraja

2 – 3 ball – past daraja

0 – 1 ball – juda past daraja

«OILA RASMI» TESTI.

Oila bola ko'zi bilan

Pedagoglar va psixologlar oila muammolarini, uning an'ana va udumlarini, bola shaxsining shakllanishida oilaning ta'sirini o'rganishda juda ko'p ishlar qilmoqdalar.

Bola ota – onaning faqatgina tarbiyaviy ta'sir etish mahsuli emas. U o'z oilasini o'zicha tushunadi va qabul qiladi. Oiladagi o'z o'rnini o'zaro aloqada belgilaydi va oilada o'zini o'zicha

anglaydi. Bolalar ro'y berayotgan hodisalarga kattalarga nisbatan boshqacha baho beradilar. Biz qachonki atrofimizdagi olamni bola ko'zi bilan ko'rishga o'rganib olganimizdan so'nggina, ularni to'g'ri tushunamiz, hayajonlariga, qayg'ulariga yordam bera olamiz. Eston psixologi G.Xementaskas tomonidan ishlab chiqilgan mashxur «Oila rasmi» testi kattalarga dunyoni bola ko'zi bilan ko'rishga yordam beruvchi vositadir. Bu test bolaning o'z oilasiga bergan shaxsiy bahosi haqida, oila a'zolari bilan bo'lgan munosabatlari, bola nimalarni idrok qila olmasligi, nimalarni kuchli xayajon bilan his qilishi haqida tushuncha beradi. Nimalar bolani ongsiz ravishda xavotirga solsa, xuddi shu narsalar bolalarning rasmlarida ifodalanadi.

Oila rasmi bola shaxsining psixologik portretidir. Bu testni 3 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalarda qo'llash mumkin. Psixologlar bu testdan bolaning oiladagi «Men»ini o'rganish maqsadida foydalanadilar. Bu testni o'tkazish pedagogik va psixologik amaliyotda qulay va ommabop. Bu testni o'qituvchilar, maktab psixologlari va ota – onalar o'tkazishlari mumkin.

Tadqiqotni o'tkazish uchun: 21 x 29 sm hajmidagi oq qog'oz, o'chirg'ich kerak. Bolaga: «Iltimos, o'z oilang rasmini chizib ber» - deb aytiladi. Lekin «oila» nima ekanligi haqida tushuntirilmaydi, chunki tadqiqot o'tkazishning maqsadi o'zgaradi. Topshiriqni o'tkazish uchun vaqt chegaralanmaydi. Topshiriqni bola bajarayotganda quyidagilarga e'tibor berish kerak: tarkiblarni chizish ketma – ketligi, tarkiblarni o'chirilishi, bolaning izohlarga, his – hayajonga berilishi va h.k.

Topshiriq bajarib bo'lgandan so'ng bolaga quyidagi savollar beriladi: 1) Aytchi, sen bu rasmda kimlarni chizding? 2) Ular qaerdalar? 3) Ular nima qilyaptilar? 4) Ular xursandmilar, yoki biron narsadan zerikkanmilar? 5) Ulardan qaysi biri baxtli? Nimaga? 6) Ulardan qaysi biri juda baxtsiz? Nimaga?

«Oila rasmi» testini tahlil qilish uchun a) bolaning yoshi, b) oila a'zolarining sonini v) aka, uka, opa, yoki singillarining yoshini bilish kerak.

Oila rasmining tahlili

1) Bolaning haqiqiy oilasi uning chizgan oila rasmi bilan taqqoslanadi. Oiladagi o'zaro munosabatlar va undagi muhit ijobiy bo'lsa, bola oiladagi barcha a'zolarining rasmini chizadi. Agar rasmda oila a'zolarining birontasi chizilmagan bo'lsa, demak oilaviy vaziyat mukammal emas.

2) Agar rasmda oilaga taalluqli bo'lmagan odamlarning rasmi chizilgan bo'lsa: a) e'tiborsizlik, yolg'izlanib qolish, b) kuchli katta xavotirlanish darajasi.

3) odatda bolalar oilaning qaysi bir a'zosi bilan nizoli muammo vujudga kelgan bo'lsa, shuni chizishni unutib qo'yadilar. Ko'p hollarda aka, uka yoki opa, singillarning rasmini chizmaydilar. Bu bilan bola oilada o'zining ustunligini, ota va onasining mehriga

to'ymaganligini ifodalaydi. Masalan, bola o'zini ota va onasining o'rtasida chizib ko'rsatgan, kichik ukasi yoki singlisini esa umuman chizmagan.

4) Agar bola o'z rasmini chizmagan bo'lsa yoki oilasining o'rniga faqat o'zinigina chizsa, demak bu holda oilada umumiy birlikning yo'qligidan dalolat beradi.

5) Agar oilasining o'rniga bola hayvonlar va qushlarni chizsa, demak bolaga e'tibor va hissiy muloyimlik yetishmaydi.

6) Agar bola oila a'zolarining rasmini qo'llari tutashgan va bir qatorda chizgan bo'lsa, demak bu oiladagi psixologik iqlim yaxshi. Agar unday bo'lmasa, demak aksincha.

7) Agar oila a'zolari guruh – guruh bo'lib chizilgan bo'lsa, demak bu oilada kichik guruhlar borligini bildiradi. Masalan, 9 yoshli o'g'il bola o'zini otasi bilan, onasi va opasini esa alohida guruhda chizgan.

8) Oila a'zolarining kiyimlarida ko'p tarkiblarning borligi, rangligi oilaviy munosabatlarning ijobiyligini ko'rsatadi va aksincha oilaviy munosabatlarda adovat bo'lsa, oila a'zolarining gavdalari to'liq bo'lmay, kiyimsiz yoki tugatilmay chiziladi.

9) Bolalar odatda otasi va onasini juda katta qilib chizadi. Demak, oiladagi munosabatlar tenglik asosida, bola o'zini oilada kattalardek xis qiladi.

10) Agar bolalar o'zlarini otasi va onasidan ham katta qilib chizsa, demak bolani o'z – o'zini baholash darajasi juda ham yuqori.

11) Agar bola o'zini boshqa oila a'zolariga nisbatan juda kichik ota – onasi tomonidan g'amhurlik talab qiladi.

12) Agar bola o'z rasmini qo'llarini yuqoriga ko'targan holda, barmoqlarini uzun qilib chizgan bo'lsa, bu uning tajovuzkorligidan xabar qiladi. Ba'zan bunday rasmlarni yuvosh bolalar ham o'zining atrofidagi odamlarga nisbatan tajavuzkorona ruhda ekanligi, lekin bu holat yashirinligi ma'lum bo'ladi hamda bola kuchli va o'zgalar ustidan xukmron bo'lish hohishi borligini bildiradi.

13) Agar bola oila a'zolarining qo'llarini mushtcha tugilgan holda, barmoqlari uzun holatda chizsa, demak u shu oila a'zosining o'ziga nisbatan tajovuzkorligini his qiladi.

14) Agar bola o'zining tishlarini katta qilib chizgan bo'lsa, demak unda tishlash, baqirish, qo'pollik qilishga moyillik kuchlidir. Agar bola boshqa oila a'zolarini shunday holatda chizsa, ana shu oila a'zosiga nisbatan qo'rquv va dushmanlikni his qiladi.

15) Oila rasmi testi bolaning yosh xususiyatlari bilan bog'liqdir. 3 – 4 yoshdagi bolalar odam gavdasini chiziqlar bilan to'liq bo'lmagan holda chizadilar. 7 – 8 yoshli bolalarning rasmi esa ancha boyroq bo'lib, gavda tuzilishlari to'liq, rasmlar tugallangan bo'ladi.

Shunday qilib, bola o'zini oilada qanday xis qilishni bilishini hohlasangiz, unga toza oq qog'oz bering va oila rasmini chizib berishini iltimos qiling.

Oila kinetik rasmining alomatlari majmui

Alomatlar majmui		Alomat	Bal l
I. Qulay oilaviy vaziyat		Oiladagi barcha a'zolarining umumiy faoliyati Rasmda odamlarning ko'pligi Oiladagi barcha a'zolarining ko'pligi Oilada yakkalanib qolgan a'zolarining yo'qligi Shtrixovkaning yo'qligi Chiziqning yaxshi sifati Adovat ko'rsatkichlarining yo'qligi Varaqda odamlarning o'xshash tarzda taqsimlanishi Mumkin bo'lgan boshqa belgilar	0,2 0,1 0,2 0,2 0,1 0,1 0,2 0,1
II. Xavotirlanish	0	Shtrixovka Asos chizig'i – jins Rasm ustidagi chiziq Kuchli bosib chizilmagan chiziq O'chirish Detallarga e'tiborni kuchaytirish Narsalarning ko'pligi Qo'shaloq yoki uzuq – uzuq chiziqlar Ayrim detallarni ta'kidlash Mumkin bo'lgan boshqa belgilar	0,1 ,2,3 0,1 0,1 0,1 0,1 ,2 0,1 0,1 0,1 0,1 0,1

III. Oiladagi kelishmovchilik vaziyati	0 1	Shaxslar o'rtasidagi to'siqlar	0,2
		Ayrim shakllarning o'chirib tashlanishi	0,1
		Ayrim shakllarda gavdaning ba'zi bir qismlarining yo'qligi	,2
		Ayrim shakllarni ajratib ko'rsatish	0,2
		Ayrim shakllarni yakkalab qo'yish	0,2
		Ayrim shakllarning o'xshash bo'lmagan kattaligi	0,2
		Tashqi tasvir bilan rasmning mos kelmasligi	0,1
		Narsalarning ko'pligi	0,1
		Rasmda oila a'zolaridan ayrimlarining yo'qligi	0,2
		Orqasi bilan turgan oila a'zosi	0,1
		Mumkin bo'lgan boshqa belgilar	
IV. Oilaviy vaziyatda mukammal emaslik tuyg'usi		Rasm muallifi nomutanosib ravishda kichik	0,2
		Shakllarning qog'ozning quyi qismiga joylashtirilishi	0,2
		Chiziq zaif, uzoq – yuluq	0,1
		Muallifning boshqalardan ajralib qolishi	0,2
		Kichik shakllar	0,1
		Muallif shaklining boshqalarga nisbatan harakatsizligi	0,1
		Muallifning yo'qligi	0,2
		Muallif orqa o'girib turibdi	0,1
		Mumkin bo'lgan boshqa belgilar	
V. Oilaviy		Bitta shakl boshqa varaqda yoki varaqning orqa tomonidan	0,2
		Shakllning tutgan tajovuzkor yo'li	0,1
		O'chirib tashlangan shakl	0,2

munosabatlarda adovat		Qiyofasi o'zgartirilgan shakl	0,2
		Teskari profil	0,2
		Qo'llar ikki tomonga yoyilgan	0,1
		Barmoqlar uzun, ta'kidlab ko'rsatilgan	0,1
		Mumkin bo'lgan boshqa belgilar	

Shaxslararo mulokotchanlik kunikmalarini xosil qilish uchun tashkil etiladigan treninglar

Shaxslararo mulokotchanlik kunikmalarini xosil qilish uchun tashkil etiladigan treninglarning maksadi – mulokot jarayonida vujudga keladigan nizoli va muammoli vaziyatlarni yechishga urgatishdan iboratdir.

Bu borada olib borilgan treninglar ishtirokchilarga nima beradi?

- ✚ Gurux a'zolarining xar birida kuzatuvchanlikning oshishiga olib keladi;
- ✚ Mulokotga kirishayotgan sherigining verbal noverbal mulokotidagi farkni ajrata bilishga urgatadi, ya'ni ishtirokchilar mulokotdagi sherigining suzlari bilan mos kelmayotgan xatti-xarakati, xolati, imo-ishoralarni ukiy bilishga, ularni taxlil qilishga urganadi;
- ✚ Turli xil vaziyatlarda suxbatdoshi bilan mulokotga kirisha olish yullarini egallashga urgatadi;
- ✚ Nizoli va muammoli vaziyatlarda xulk-atvorini me'yorida ushlab turishga urgatadi;
- ✚ Mulokot jarayonida boshkalarni, uzini, shuningdek odamlar orasidagi munosabatlarni yaxshirok tushunishga urgatadi;
- ✚ Shaxsning uz-uzini anglash jarayonini tezlashtiradi.
- ✚ Uzi va suxbatdoshining emotsional xolatini solishtirishga, uzidagi emotsional zurikishni pasaytirishga urgatadi.

Trening jarayonida trener shaxslararo munosabatlarni yaxshilash uchun muljallangan uyin va mashklar, baxs-munozaralarni taklif etishi uchun aynan mulokot xakida, shuningdek bu boradagi psixologik bilimlarga ega bulishi talab etiladi. Shaxslararo munosabatlar psixologiyaning eng murakkab va asosiy yunalishi bulib, buni bilmasdan turib trening jarayonini tashkil etish va uning samarasini ta'minlash mumkin emas.

Odatda uzaro munosabatda bulayotgan odamlar – mulokot ishtirokchilari turli xil pozitsiyalardan kelib chikkan xolda uzaro munosabatlarda buladilar. Bu pozitsiyalar kup jixatdan mulokot ishtirokchilarining uzaro xolatiga, mulokot natijasiga ta'sir etadi va keyingi

munosabatlar mazmunini xam belgilab beradi. Insonlar uzaro munosabatlarda kanday pozitsiyada turib mulokot urnatishlariga karab psixologiyada 5 xil munosabat tiplari farklanadi:

I. Rakobat usuli - mulokot jarayonidagi bir tomonning ikkinchi tomon ustidan xukmronligini namoyon qilgan xolda mulokot vaziyatini boshkarishga va butun jarayonni uz kuliga olishga xarakat qilishini anglatadi. Odatda, katta yoshlilar va kichiklar urtasida, raxbar vaunga tobe xodim munosabatlarida shunday manzarani kuzatishimiz mumkin. Bunda birinchi tomon uz ustunligidan foydalangani xolda ikkinchisining ustidan uz erkini namoyon etadi. Tabiiyki, mulokotdan mulokotga tomon uzini tobe deb xis etayotgan odamda ichki nokulaylik va zurikishlar yigilib boradi. Bunday xolatni psixologik til bilan ifodalanganda «yashirin nizo yigilib boradi» deyish mumkin. Bu esa uzaro munosabatlarning keskinlashuvi va vakti kelib kattarok nizolarning paydo bulishiga olib keladi.

II. Yon berish – yukorida aytilgan xolatga uxshashrok, biroq undan kura farklirok xolat xisoblanadi. Bunda shaxs mulokot jarayonida yon berishga majbur emas, lekin u yon berishga burchliman deb xisoblaydi. Bunda kishi uzidan yoshi, mansabi, mavkei jixatdan katta kishi oldida uz manfaat va istaklarini tula ifoda etolmay uzini tobe xis etadi. Agar yukoridagi misolda tobelik uzga kishi tazyiki ostida vujudga kelsa, yon berish pozitsiyasida shaxs uz ixtiyori bilan shu xil munosabat tarafdori buladi. Lekin ma'lum vakt va natijalardan sung unda ichki konikmaslik xislari paydo bula boshlaydi. Bunday konikmaslik xislari ortib borish natijasida esa yon berayotgan kishisiga nisbatan ichki norozilik kelib chikadi. Yon berish insonni passivlikka undaydi, uning ichki tashabbusini bugib kuyadi va erkinligini cheklaydi. Kup jixatdan bu pozitsiya xam mukarrar nizolarga olib keladi.

III. Passivlik – biron masalani xal etish lozim bulgan vaziyatlardan shaxsning uzini olib kochishi, turli baxonalar bilan karorni orkaga surishini anglatadi. Kupincha bu xil xarakat nizoli vaziyatlarni xal etish jarayonida namoyon bulishi mumkin. Aytish mumkinki, passivlik – nizodan kochish emas, balki masalani uzil-kesil xal etishdan kochihdir. Muammoni issigida xal qilish kerak, uni xal qilishni chuzib yurish kerak emas. Chunki nizoni xal qilishdan kochganimiz bilan nizo uz-uzidan xal bulib kolmaydi. Bu urinda ukuvchida «Kelishmasdan kolgan yoki orasida nizo paydo bulgan ikki kishi vakt utishi bilan bir-birini kechirib ketishi xam mumkin-ku, buni kanday tushunish mumkin?» kabi e'tiroz tugilishi xam mumkin. Bu e'tiroz tashki tomondan karaganda tugri, lekin psixologik jixatdan taxlil kilinsa, atrofdagilar nazarida ular bir-birini kechirgandek kurinsalarda, aslida ma'lum muddatgacha bir-birlariga nisbatan ichki norozilik xolatida kolaveradilar.

IV. Kompromiss – ya’ni kelishuvchanlik. Baxsli vaziyatlarda «Sen xam yutkizma, men xam yutkizmay» kabilida ish tutish, munozarali vaziyatdan ikkala tomon xam xafa bulmay chikib ketish imkoniyatini izlashdan iborat bulgan xoldir. Albatta, bu yukorida sanab utilgan munosabat tiplarining orasida eng samaralisi xisoblanadi. Lekin bu xil munosabat vaziyatni aynan xozir xal etishga, «keyin nima bulsa bular» kabilida ish tutishga karatilgan buladi. Bunda salbiy jixati shundaki, muammoni oxirigacha xal etilmasa, bora-bora baribir nizo kelib chikishi mumkin.

V. Xamkorlik – bu xolat mulokot jarayonda ishtirok etayotgan barcha ishtirokchilarning uzaro manfaatlarini xisobga olgan xolda mulokotda bulish va muammoli vaziyatni oxirigacha xal etishga intilishdir. Xar kanday mulokot jarayonida xamkorlikka erishish uchun erishiladigan oxirgi natija ikkala tomonning xam manfaatlarining kondirilishi va ularning kizikishlariga mos kelishi kerak. Oilaviy munosabatlar, ishxonadagi vaziyatlar va turli xollardagi insoniy munosabatlarda bu usul juda kup kullanadi.

Xayotiy vaziyatlarda fakat uzining manfatinigina emas, balki boshkalarni xam manfaatini uylash, boshkalarning manfaatlari xakida xam kaygurish xamkorlik munosabatlarining garovi xisoblanadi. Zamonaviy psixologiya fanida xamkorlik munosabatlarini shakllantirishning konuniyat va mexanizmlari yetarli darajada tula ishlab chikilgan. Shu ma’lumotlarga tayangan xolda xozirgi paytda maxsus tashkil etiladigan trening mashgulotlarida turli xil uyin va mashklar yordamida odamlarga xamkorlik munosabatlarining amalga oshirilishi xakida ma’lumotlar berish, insonning xamkorlik pozitsiyasida turib mulokotga kirishishi borasida kunikma va malakalarni shakllantirish yulga kuyilgan.

Shu urinda aloxida ta’kidlash lozimki, bu jarayonni tashkil kilish va olib borishda nafakat trening utkazish uslubi, balki trenerning shaxsiy pozitsiyasi xam yetakchi omillardan biri bulib xisoblanadi. Ya’ni bu xil munosabat uslubi trenerning e’tikodiga aylangan bulishi va u xar kadamda buni namoyon kilishi kerak.

Yukorida aytganimizdek, samarasiz mulokot uslublari insonlar urtasida nizoli vaziyatlarning kelib chikishiga olib keladi. Odatda nizo – manfaat, kizikish va dunyokarashlarning karama-karshiligi sifatida ta’riflanadi. Xar bir inson boshkalar bilan munosabatga kirishar ekan, u albatta biron manfaatni, xatto aytish mumkinki, eng avvalo uz manfaatini kuzlagan xolda va masalaga uz karashini ifodalab mulokotga kirishadi. Lekin mulokot kamida ikki tomonning uzaro fikr almashuvidan iborat va ikkala tomon xam mulokot muammosiga nisbatan xar xil fikrlarni bildirishi mumkin. Natijada fikrlar karama-karshiligi, ya’ni nizoli vaziyatlar vujudga kelishi mukarar. Odatda nizoli vaziyatlarda bir tomon uz fikrini

tugri deb xisoblaydi, ikkinchi tomonning fikrini esa inkor etadi, natijada mulokot jarayonida uzilish va mulokotdan konikmaslik xissi yuzaga keladi. Bu konikmaslik xissi ochik-oydin ifoda etilsa – tomonlar urtasida kelishmovchiliklar kelib chikadi, xatto urtada nizo (janjal) paydo buladi. Lekin ba’zi xollarda biz bunday konikmaslik xissini ochik iifoda eta olmaymiz va ichimizga «yutib» ketamiz, natijada tomonlar urtasida yashirin nizo paydo buladi va urtadagi davomiy sovukchilikning asosiga aylanadi.

Xulosalar.

Demak, aytish mumkinki, birgalikdagi faoliyat va xayotga, ya'ni mulokotga xalakit beruvchi tusik xamda noxushliklarni uz vaktida bartaraf etishga intilish kerak. Buning uchun eng yaxshi usul – unutishdir. Unutish vazifasini esa vakt bajarishi mumkin, ya'ni vakt utishi bilan biz nizoli vaziyatlarni, kim bilandir urtamizda paydo bulgan noxush vaziyatlarni unuta boshlaymiz. Lekin xozirgi jadal tarakiyot davrida vaktga ishongandan kura, faol xarakat kilib nizoli vaziyatlar natijasi bulgan noxushliklarni ixtiyoriy ravishda bartaraf etish samaraliroq natija berishi mumkin. Buning uchun esa shu maksadda tashkil etiladigan treninglar yaxshi natija beradi. Shaxslararo mulokotchanlik kunikmalarini xosil kilish uchun tashkil etishga muljallangan trening davomida kuyidagi mashk albatta utkazilishi kerak. Xar bir ishtirokchi «Karshimdagi odam kim?» degan savolga javob ola bilinadigan savollarni bilishi lozim. Umuman shaxs uz karshisidagi odam, ya'ni suxbatdoshi xakida imkon darajasida kuprok ma'lumotga ega bulishi lozim. Psixologik adabiyotlarda ta'kidlanishicha, xech bulmaganda mulokotga kirishayotgan odam xakida 7 ta ma'lumotga ega bulish maksadga muvofikdir. Bu ma'lumotlar suxbatdoshning:

- Ismi
- Mutaxassisligi
- Oilaviy axvoli
- Sogligi xakida ma'lumotlar
- Kasbining uziga yokadigan va yokmaydigan tomonlari
- U kadrldaydigan insoniy sifatlar
- Kizikishi yoki xobbisi.

Bu ma'lumotlar katori kanchalik kup bulsa, shuncha yaxshi, chunki suxbatdoshi xakida ma'lumotlarning kupligi samarali mulokot urnatish kafoloti xisoblanadi. Demak, xar kanday odam muvaffakiyatli mulokotga kirishish uchun suxbatdoshi xakida kuprok ma'lumot bilishi talab etiladi. Samarali mulokotni tashkil kilishda e'tiborga olinishi lozim bulgan yana bir xolat shundan iboratki, bunda trening ishtirokchilari «Karshimdagi odam kanday xolatda?» degan savolga javob bilishlari talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston kelajagining poydevori. T., 1997
2. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., O‘zbekiston, 1997
3. Karimov I.A. “O‘zbekiston Mustaqillikka erishish ostonasida”
T. 2011
4. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch “ T.2008
5. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisi psixologiya. T., 1998
6. Sherbakov A.I. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyadan praktikum. T., 1991
7. Vohidov M.V. Maktabgacha tarbiya psixologiyasi. T., “O‘qituvchi”, 1970
8. G‘oziev E. Psixologiya. T., “O‘qituvchi”, 1994
9. Krutetskiy V.A. Pedagogik psixologiya asoslari. T., “O‘qituvchi”, 1976
10. Karimova V. Va boshqalar. Mustaqil fikrlash. T., “Sharq”, 2000
11. Ahloq-odobga doir Xadis namunalari.-T., 1990
12. Ibroximov A. Va boshqalar. Vatan tuyg‘usi. – T., “O‘zbekiston”, 1997
13. Levantuev P.I., Asqarxo‘jaev A., Chudnovskiy V.E., Vohidov M.V. Bolalar psixologiyasi ocherklari. T., “O‘qituvchi”, 1964
14. Davletshin M.G. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik texnologiya. T., 2004
15. Z Nishonova. Bolalar psixologiyasi va uni ukitish metodikasi
T. 2006